BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz

VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ● 2024-yil 6-dekabr, №49 (3111)



4-5 “O‘Z KASBINING USTASI” UNVONI UCHUN

6-7 ISLOHOTLAR TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

15 KORRUPSIYA – XAVFLI ILLAT

QOMUSIM – ISTIQBOLIM

Istiqlol quyoshin jonbaxsh nuridan,
Bir kitob yaraldi aziz, mukarram.
Ezgulik yog‘ilar har so‘z duridan,
Har nodir satrida hikmat mujassam.

Bu baxtim qonuni – qomusim erur,
Mustaqil Vatanim hayot ko‘zgusi.
Uning har qatidan taraladi nur,
Odil tamoyili xalqim orzusi.

Huquq va erkinlik, orzu-intilish,
Inson hayotining mazmuni azal.
Qomusim barchasin mukammal etmish,
Elimga tutqazib dasturulamal.

Adolat mezoni erur qomusim,
Xalqim irodasi, ruhi unda jam,
Sha’nim, qadriyatim, or-u nomusim,
Burch va majburiyatim unda mujassam.

Zulfiya YUNUSOVA

MUSTAQIL VATANIM HAYOT KO‘ZGUSI

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

YANGI O‘ZBEKISTONNING XALQPARVAR HUQUQIY POYDEVORI

“Hamma xalqlar uchun yozilgan Konstitutsiya hech bir xalqqa mos kelmaydi”, deb yozgan ekan XVIII–XIX asrlarda yashab o‘tgan fransuz siyosatchisi, faylasuf Jozef de Mestr. Ushbu fikr qaysidir ma’noda har bir millatning o‘ziga xos tarixi, madaniyati hamda qadriyatlari borligini va u o‘z kelajagini ana shu milliy o‘zlikdan kelib chiqib qurishga haqli ekanini tasdiqlaydi. Dunyoda turli murakkab geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda biz ham 2023-yilda Konstitutsiyamizga yangi mazmun bag‘ishlab, zamon talablariga javob beradigan hujjat yaratdik.

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi arafasida Asosiy qonunimiz ahamiyati haqida fikr yuritish ayniqsa muhim. Zero Konstitutsiya faqatgina yuridik hujjat emas, balki xalqimizning umumiy maqsadlarini belgilab, ertangi kunga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydigan poydevor hamdir.

Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga endigina bir yarim yildan oshdi. Esingizda bo‘lsa, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 8-may kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqotida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo‘yicha 30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum yakunlari haqida gapirar ekan, jumladan shunday degan edi: “Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz!”

Ushbu yig‘ilishda men ham ishtirok etgan edim. Shavkat Miromonovichning qat’iy aytgan ushbu so‘zlari ko‘plar qatori meni ham hayajonga soldi. Zero bu so‘zlar zamirida kelajakka, xalqimizga, uning cheksiz bunyodkorlik salohiyatiga qat’iy ishonch mujassam edi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Yangi O‘zbekiston poydevorini mustahkamlaydigan qonunlar va institutlar tizimini yanada takomillashtirib, dunyoda munosib o‘rin egallashga harakat qilmoqda. Bu jarayon yangi Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topdi. Unda nafaqat mamlakatning uch ming yillik tarixi va madaniyati, balki zamonaviy dunyo konstitutsionalizmi asoslari ham to‘liq aks etdi. Yangi Konstitutsiyaga muvofiq va xalqaro me’yorlar asosida inson huquqlari hamda erkinliklari mutlaq ustuvorlikka ega bo‘ldi. Fuqarolarning barcha zarur huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda ularni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Albatta, amaldagi Konstitutsiyaga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish referendumsiz ham Oliy Majlisning har ikki palatasi uchdan ikki qismi ovozi bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Biroq Prezident milliy referendum o‘tkazish taklifini ilgari surdi. Mamlakat aholisining ushbu jarayonga keng jalb etilishi davlatimiz rahbarining yurtimiz fuqarolariga, ularning fikr-mulohazalari va istaklariga alohida e’tibor bilan qarashini yana bir bor isbotladi. Millatimiz lideri aynan xalq bilan muloqotda ulkan va tub islohotlarni, jumladan Konstitutsiyaga doir o‘zgartishlarni amalga oshirishda kuch va jasorat beradigan quvvat va ilhom manbaini topdi.

“Qonun kuchli, ammo ehtiyoj undan ham kuchliroq”, degan edi Iogann Volfgang Gyote. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilish tarixi mamlakatimiz uchun muhim voqelikka aylandi, uning har bir moddasi xalq xohish-irodasini ifoda etdi va bu o‘zgarishlar yurtimizda keng ko‘lamli islohotlarga yo‘l ochadigan chinakam insonparvar siyosatning huquqiy bazasini mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqdi, desam, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero Konstitutsiya muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz ishtirok etdi, 222 715 ta taklif kiritildi. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni 128 tadan 155 tagacha oshirildi, normalar esa 275 tadan 434 taga yetkazildi. Bu jarayonda 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendum hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Saylovchilarning 90,21 foizi yangi tahrirni qo‘llab-quvvatladi.

Shu o‘rinda Konstitutsiyaning adolatli va barqaror jamiyat qurishdagi ahamiyati qanday, degan haqli savol tug‘iladi. Bu savolga javob berish oson emas. Chunki mukammal jamiyatni, “Fozil odamlar shahri”ni orzu qilish irratsional utopiya mahsulidir. Vaholanki, dunyoda mukammal jamiyatning o‘zi yo‘q. Ammo insoniyatning eng qadimiy ehtiyojlaridan biri bo‘lgan adolatli, barchaga teng huquq va imkoniyatlar yaratib beradigan, shu bilan birga teng majburiyatlar yuklaydigan jamiyat qurishning imkoni ham, zarurati ham bor. Konstitutsiya mana shu adolatni kafolatlaydi va ta’minlaydi. Buning uchun jamiyatning o‘zi ham o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi, uni istashi va qonunlarning haqiqiy mazmun-mohiyatini aslicha qabul qilishi kerak. Agar jamiyatning o‘zi o‘zgarishni istamasa, hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Davlatimiz rahbarining xalqimiz ruhiyati, ong-u tafakkuri zamon bilan hamnafas o‘zgarishi kerakligini, bu esa, shak-shubhasiz, xalqimiz hayotini yaxshilashga xizmat qilishini bot-bot takrorlashida ham ayni shu haqiqatning in’ikosini ko‘rish mumkin.

Darhaqiqat, bugun zamon o‘zgaryapti. Bashariyat kelajagiga tahdidlar kuchaygan, turli mintaqalarda urush va o‘zaro nafrat urug‘i alanga olgan, nafaqat tamaddunlar, g‘oyalar, balki xalqlar, elatlar, urug‘lar o‘rtasida adovat bo‘y cho‘zgan bir zamonda yashayapmiz. Ko‘z o‘ngimizda dunyoning geosiyosiy xaritasi qayta bichilyapti, biz yaqin yuz yilda ko‘nikkan siyosat, falsafa, turli qonuniyat-u dunyoqarashlar poydevoriga darz ketyapti.

Men bularni nima uchun tilga olyapman? Chunki Konstitutsiya davlatni davlat, xalqni xalq, millatni millat qiladigan, zamonning tahdidlariga qarshi birlashtiradigan, taraqqiyot sari yetaklaydigan, yaratuvchanlikka ilhomlantiradigan qadriyatlarimizdan biridir. Zero Konstitutsiyamiz quruq orzu-niyatlar yig‘indisi, qog‘ozdan real hayotga ko‘chmagan utopik qarash emas, balki vatandoshlarimizning Vatanga muhabbati, hayotbaxsh islohotlarga daxldorlik hissi, o‘z taqdiri, kelajagiga munosabatini ham isloh etayotgan qudratini barchamiz bugungi hayotimiz misolida ko‘rib, bilib turibmiz.

Hayotimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar asnosida yana bir haqiqatni tan olish kerak. Tarixni shaxslar yaratadi. Shaxslar davlatning, xalqning u yoki bu burilish nuqtasida katta sahnaga chiqadi, uning taraqqiyoti uchun o‘zida inqilobiy qarorlar qabul qilishga shijoat va jasorat topa oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimiz tarixini yangi – nurli o‘zanga bura olgan ana shunday buyuk shaxs sifatida namoyon bo‘ldi.

Yaqin tariximizni hali hech kim unutgan emas. Bir eslang, qay ahvolda edik? Tashqi va ichki siyosatimiz, iqtisodiyotimiz, ma’naviyatimiz, ijtimoiy hayotimizda yig‘ilib qolgan muammolar zudlik bilan hal etilishi kerak edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ana shunday og‘ir bir vaziyatda iqtidorga keldi. U kishining xalqparvar, uzoqni ko‘zlagan siyosati, oddiy odamlar dard-u tashvishi bilan yashashi, g‘ayrat-shijoati o‘sha davr qoliplariga sig‘mayotganini biz – uning atrofidagilar sezib turar, uning ilg‘or tafakkuri ortidan qolmaslikka harakat qilar edik. Shavkat Miromonovich O‘zbekiston Konstitutsiyasini yangilash davr talabi ekanini takrorlar ekan, jamiyatga, xalqimizga Yangi O‘zbekiston g‘oyasini singdirdira oldi, mamlakatimizning har bir fuqarosida ko‘z o‘ngimizda ro‘y berayotgan olamshumul o‘zgarishlarga daxldorlik hissini uyg‘otdi. Bugungi bunyodkorlik, ham zohiriy, ham botiniy o‘zgarishlar, yangicha tafakkur, yangicha a’mollar... “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan tamoyilning faoliyatimiz asosiga aylangani xalqimiz hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, bular mamlakatimizda “Uchinchi Renessans davri”ni boshlab berdi, xalqimiz qonida mudrab yotgan bunyodkorlik, tadbirkorlik, ilm-u ma’rifatga bo‘lgan intilishni uyg‘otdi. Haqiqatan ham, bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Yangi O‘zbekistonning “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi...” deya boshlanadigan yangi Konstitutsiyasi esa mazkur islohotlar huquqiy asosini mustahkamladi.

Ba’zan o‘ylab qolaman, nega Yangi O‘zbekiston? Uning mazmun-mohiyati nimada? Axir yangi iborasi jadid so‘zi bilan hamohang-ku! Millati savodli, o‘qimishli, yuksak orzu-niyatli, zaminimizni dunyoning ilg‘or mamlakatlari qatorida ko‘rishni istagan bobolarimiz orzusidagi davlat barpo etish g‘oyasi uzoq o‘tmish qa’ridan bugunimizga ko‘chmadimikin? Agar shunday bo‘lsa, davlatimiz rahbari atrofida jipslashganlar, O‘zbekistonni dunyoda tenglar ichra teng qilishga jidd-u jahd qilganlarni ham jadidlar deya olamizmi? Shubhasiz, shunday! Zero shitob bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘zligimizni, kimligimizni topishga, ilm-u irfonni rivojlantirishga, taraqqiyotimizga to‘siq bo‘layotgan illat-u kamchiliklarimizdan qutulishga intilayotganimiz, yuksak marralarni ko‘zlayotganimiz jadid bobolarimiz orzu qilgan ma’vo edi.

Qolaversa, mana shu orzu-niyatlarga yetishish uchun nafaqat mustahkam huquqiy, balki falsafiy va ma’naviy asos kerak ediki, bu yangi tahrirdagi Konstitutsiya timsolida namoyon bo‘ldi. Xalqimiz uchun bu Konstitutsiya qandaydir abstrakt tushuncha emas. Konstitutsiya – qonun, to‘g‘ri. U qaysidir ma’noda moddiy ham emas. Biroq Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalardan kelib chiqadigan oqibatlarni biz bugun o‘z ko‘zimiz bilan ko‘ryapmiz, his qilyapmiz.

Shu o‘rinda yana adolat va ehtiyoj haqidagi fikrni takrorlashga to‘g‘ri keladi. Odamlar yaxshi yashashni, o‘z mehnatiga yarasha maosh olishni, haq-huquqlari himoyalanishini, qariganda munosib pensiya bilan ta’minlanishni istaydi. Adolat odamlarda kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois Yangi Konstitutsiyada adolat jamiyat va davlat munosabatlarining markaziy g‘oyasi sifatida belgilandi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi kafolatlandi, “davlat – jamiyat – shaxs” paradigmasi “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgardi.

Konstitutsiyada inson huquqlariga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada oshdi. Dunyo mamlakatlari qonunlarida belgilangan 110 dan ortiq huquqdan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlandi. Ekologik masalalarga alohida ahamiyat berilib, tabiatni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda Orolbo‘yi mintaqasini tiklash bo‘yicha davlat majburiyatlari mustahkamlandi.

O‘zbekistonning boy tarixi, ajdodlarimiz merosi va inson huquqlari haqidagi xalqaro standartlar Konstitutsiyaning ma’naviy asoslarini boyitdi. Xalqimizning qadriyatlari, jumladan bag‘rikenglik va adolat kabi fazilatlar Asosiy qonunimiz ruhiyatiga singdirildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya yangi tashqi siyosiy yo‘nalishlarimizni ham aks ettirdi. Yangi O‘zbekiston dunyo mamlakatlari bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, global iqtisodiyotda faol ishtirok etish hamda barqaror rivojlanishga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Ta’lim sohasida adolatli qoidalar joriy etildi. Maktabgacha ta’limdan boshlab umumiy o‘rta ta’limgacha bo‘lgan bosqichlar bepul qilindi. Barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishni nazarda tutuvchi inklyuziv ta’lim ta’minlandi.

Sog‘liqni saqlash sohasida davlat tibbiy yordamni kafolatlagan holda, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, epidemiyalarga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirishga katta e’tibor qaratildi. Bu nafaqat tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, balki ularni barcha uchun birdek qo‘llashni nazarda tutadi.

Konstitutsiyada mehnat sohasida adolatli ish haqi, gender tenglik va ish joyida kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik mustahkamlab qo‘yildi. Bu, ayniqsa, ayollar va yoshlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, homiladorlik yoki bolali bo‘lgani bois ayollarni ishga qabul qilishdan bosh tortish yoki ularning maoshini kamaytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyili joriy etildi. Bu davlat aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, qashshoqlikni kamaytirish va tenglikni ta’minlash yo‘lida faol harakat qiladi, deganidir.

Shu bilan birga, Konstitutsiya yoshlar uchun ta’lim, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik sohalarida yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Asosiy qonunda oilaviy kafolatlar, uy-joy huquqi va ijtimoiy himoya masalalari ham aks ettirildi.

Konstitutsiyaning ahamiyati faqat qonunchilik bilan cheklanmaydi. U jamiyatning ma’naviy, madaniy va falsafiy tamoyillarini ham belgilaydi. Endi Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyaga muvofiq, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilandi. Ehtiyojmand shaxslar uchun kuchli ijtimoiy himoya va g‘amxo‘rlik davlat siyosati yo‘nalishining muhim qismiga aylandi. O‘zbekiston huquqiy davlat sifatida ta’riflandi. Inson huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy darajada kafolatlandi.

Ta’lim olish huquqi kengaytirildi. O‘qituvchilarga konstitutsiyaviy maqom berildi, fuqarolarning davlat granti hisobidan oliy ta’lim olish huquqi kafolatlandi. Oilani to‘liq rivojlantirish uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Hech qanday kamsitishlarsiz va eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan adolatli mehnat haqi olish huquqi kafolatlandi. O‘lim jazosi konstitutsiyaviy darajada taqiqlandi. Davlat ham insonni hayotidan mahrum qilish huquqiga ega emasligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston hududida qonuniy ravishda bo‘lgan har bir shaxs uchun mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, istiqomat joyini tanlash huquqi mustahkamlandi.

Davlat fuqarolarning Internet tarmog‘idan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishi kafolatlandi. Yoshlar huquqlari himoya qilinishi, jamiyat va davlat hayotida ularning faol ishtirokini rag‘batlantirish kafolatlandi. Milliy raqobatbardosh iqtisodiyot, xususiy tadbirkorlik va mulk huquqini himoya qilish konstitutsiyaviy kafolatga ega bo‘ldi.

Davlat boshqaruvining samarali, yaxlit va xalqparvar tizimini mustahkamlash, parlamentarizmni rivojlantirish orqali aholining farovonligi va davlatning barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Qonunchilik palatasi va Senat vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi.

Advokatlarning faoliyati kafolatlarini mustahkamlash uchun Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag‘ishlangan alohida bo‘lim kiritildi.

OAV va jurnalistlarning faoliyatini himoya qilish va ularning faoliyatini rag‘batlantirish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar ta’minlandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati kafolatlarini belgilashga bag‘ishlangan fuqarolik jamiyati institutlari haqidagi alohida bo‘lim Konstitutsiyaga kiritildi.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarni bajarish aholini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirishni va byudjetdan katta mablag‘ ajratishni talab qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, balki iqtisodiy tub o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasida 2030-yilga kelib odam boshiga YIMni 1,6 baravarga, daromadlarni esa 4 ming dollardan oshirish va “o‘rta daromaddan yuqori mamlakatlar” qatoridan joy olish maqsadlari belgilangan. O‘zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foizga o‘sib, YIM salkam 90,8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 2 468 dollarga o‘sdi.

Eksport o‘sish sur’atlari va Konstitutsiyada belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda, 2026-yilga kelib O‘zbekiston eksportini 40 milliard dollarga, 2030-yilga kelib esa 80 milliard dollarga yetkazish mumkin. Bu ijtimoiy ehtiyojlar uchun byudjetga mablag‘ oqimini sezilarli oshirishga, ish o‘rinlari yaratishga hamda O‘zbekistonning jahon eksport strukturasidagi ulushini oshirishga yordam beradi.

Shubhasiz, bu murakkab vazifa, ammo buni amalga oshirish uchun mamlakatimiz hamda xalqimizda yetarlicha imkoniyat ham, salohiyat ham bor. Strategiyaning boshqa maqsadli ko‘rsatkichlarini yangilash respublikaga iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish va yangilangan Konstitutsiya asosida rivojlanishning yangi tarixiy bosqichiga qadam qo‘yish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi shunchaki huquqiy hujjat emas, balki xalqimizning azaliy qadriyatlari, orzu-umidlari va buyuk kelajakka ishonchining yorqin timsolidir. U inson huquqlari, milliy birlik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, jamiyat barqarorligi va farovonligining mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining xalqparvar siyosati jamiyatda chuqur uyg‘onish, yangi tafakkur va ulkan islohotlarga ilhom bag‘ishlamoqda. Bugungi kun nafaqat imtihon, balki xalqimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochuvchi davrdir. Konstitutsiya asosida shakllangan adolatli qonunlar, yuksak madaniyat va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi birgalikdagi qadamlarimiz, shubhasiz, biz orzu qilayotgan farovon kelajakni barpo etishning asosiy garovi bo‘ladi.

Tanzila NORBOYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Raisi
O‘zA

Qaror va ijro

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORLASH TIZIMI YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA

Dunyo tajribasidan ma’lumki, mamlakat hayotiga oid muhim islohotlarning samarasi avvalo quyi bo‘g‘indan, ya’ni unib-o‘sib kelayotgan avlod ta’lim-tarbiyasi unga berilayotgan e’tibor o‘laroq yuzaga chiqadi. Soddaroq qilib aytganda, daraxt parvarishi uning nihollik davridanoq olib borilsa, kelgusida undan yuqori hosildorlik kutish mumkin bo‘ladi.





Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan tashabbus va g‘oyalarning amalga oshirilishida aynan yosh avlodning boshlang‘ich ta’lim-tarbiyasi va faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratilishi zamirida uzoq va puxta o‘ylangan yuksak strategik g‘oyalar yotadi.

KUNI KECHA O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyatida yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, barcha yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini oshirish kabi ulug‘vor maqsadlar yotadi.



Shundan kelib chiqib, Mudofaa, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirliklari hamkorligida olib boriladigan sa’y-harakatlar natijasida yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning vertikal tizimini yaratish orqali o‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

Qarorda hamkorlik va yakdillikda bajarilishi ko‘zda tutilgan ko‘plab vazifalar borki, ularning ayrimlari tahlili misolida kutilayotgan muhim masalalar istiqboliga nazar tashlab o‘tsak.

Avvalo, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani “Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi, faol hayotiy pozitsiya” tamoyiliga asosan tubdan yangilanib, Mudofaa vazirligi tizimida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari lavozimi joriy qilinmoqda. Shuningdek, respublikadagi har bir tuman *(shahar)*da bitta umumiy o‘rta ta’lim maktabi negizida bolalarni kichik yoshidan Vatanga sadoqatli, jismonan sog‘lom va ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan “Jasorat maktabi” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bunday maktablarda matematika, tarix, jismoniy tarbiya, chet tili, fizika fanlari chuqurlashtirilgan holda o‘qitiladi. O‘quv yili davomida ikki marta harbiy poligonlarda, har chorakda bir marta harbiy qismlarda amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘quvchilar doimiy ravishda O‘zbekiston tarixi, Temuriylar tarixi, Qurolli Kuchlar va “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasidagi “Shon-sharaf” davlat muzeylari, shuningdek Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga tashrif buyuradi.

YOSHLARGA RAG‘BAT SIFATIDA “Jasorat maktabi”ni a’lo baholarga tamomlagan “Vatan tayanchi” otryadining bir nafar o‘quvchisiga oliy harbiy va harbiylashtirilgan ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma beriladi.

Qarorda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalar ham borki, bunga alohida urg‘u berib o‘tishimiz joiz. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari avvalo yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy kasbga yo‘naltirish, turli sport musobaqalari tashkil etish bilan birga o‘quvchi-yoshlarni harbiy ta’lim muassasalariga saralash ishlarini olib boradi.

XABARINGIZ BOR, Yurtboshimizning 2022-yil 2-martdagi Mudofaa vazirligi huzurida “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori jamoatchilik tomonidan katta hodisa sifatida kutib olingan edi. Nomidan ham ma’lumki, “Vatan tayanchi” otryadlari 10-11-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda, ular ulkan va yengilmas kuch sifatida o‘zlarini namoyon qila oldi. Harakat tashkil etilgandan buyon ko‘plab ijobiy natijalarga erishgani, jamoa a’zolari orasida sportchilar, bilimdon kitobxonlar, dasturchilar borligi esa mashaqqatli mehnatning yorqin natijalari o‘laroq baholanmoqda. Yuqoridagi qarorda ushbu harakatni yanada kuchaytirish, yangicha yondashuvlarga asoslangan tizimni rivojlantirish borasida tizimli sa’y-harakatlar borligi barchamizni bir tan-u bir jon bo‘lib mehnat qilishga undaydi. Chunki chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari bevosita “Vatan tayanchi” otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish kabi muhim vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Demak, bu borada ishlab chiqilgan puxta rejalar kelgusida harakatga a’zo yoshlar va “Jasorat maktabi” o‘quvchilarini yanada yuksak natijalarga chorlashi shubhasiz.

BIR SO‘Z BILAN AYTGANDA, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari o‘quvchilar qalbida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga chuqur hurmatni mustahkam singdirish, ularda halollik, vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik, milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, olib borilayotgan chora-tadbirlar zamirida xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan yoshlarni maktabdanoq tarbiyalash masalasiga e’tibor qaratilayotgani kelajakda bilimga chanqoq, intiluvchan va yaratuvchan kadrlar yetishib chiqishiga mustahkam poydevor yaratadi.

Polkovnik Otabek YULDASHEV,
mudofaa vazirining
axborot siyosati masalalari
bo‘yicha maslahatchisi –
matbuot kotibi





Ko‘rik-tanlov



“O‘Z KASBINING USTASI”

Markaziy harbiy okrugning “Forish” tog‘ poligonida "O‘z kasbining ustasi" unvoni uchun ko‘rik-tanlovning final bosqichi bo‘lib o‘tdi. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo‘shinlari, Milliy gvardiya, DXX Chegara qo‘shinlarida o‘tkazilgan dastlabki bosqichlarda g‘olib bo‘lgan eng ilg‘or serjant, eng ilg‘or guruh, vzvod, batalyon va brigada komandirlari besh kun davom etgan nufuzli musobaqada komandirlik, jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik bo‘yicha kuch sinashdi.





O‘zbekiston Qurolli Kuchlari qo‘shinlari jangovar shayligi va tayyorgarligini yanada oshirish, shaxsiy tarkib o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish orqali kasbiy mahoratni takomillashtirishga qaratilgan ko‘rik-tanlov bir necha yildan buyon an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Joriy yilda ham musobaqaga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilgani ilk shartlardayoq ko‘zga yaqqol tashlandi. Jarayon keskin, murosasiz, qizg‘in bahslarga boy bo‘ldi.

“Eng ilg‘or guruh komandiri” yo‘nalishida ishtirok etgan katta leytenant Farrux Bobomurodov Qurolli Kuchlar akademiyasini 2021-yilda imtiyozli diplom bilan bitirgan. Ayni paytda Janubiy g‘arbiy maxsus harbiy okrugning Termiz garnizonida xizmat qilyapti.

– Milliy armiyamiz zimmasidagi vazifalar va uni bajarish uslublari yildan yilga o‘zgarib bormoqda. Yurt tinchligi va mustaqilligini ishonchli himoya qilish tinimsiz mehnatni, izlanishni, mardlik





UNVONI UCHUN





Umumharbiy nizomlar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mavzulari bo‘yicha test sinovlari, taktik va jismoniy tayyorgarlik me’yorlarini bajarish, o‘tochar qurollardan otish kabi yo‘nalishlarda barcha ishtirokchilar faol qatnashdi. Ushbu ko‘rik-tanlov harbiy xizmatchilarda katta qiziqish uyg‘otish bilan birga harbiy xizmat nufuzini oshirish, harbiylar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom munosabatlarni o‘rnatish asosida zamonaviy harbiy an’analarni shakllantirish, kichik va o‘rta komandirlik bo‘g‘inlari lavozimidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy o‘sishlarini rag‘batlantirish, ularning intellektual salohiyati va yetakchilik sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir hafta qizg‘in davom etgan ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi g‘olib va sovrindorlari Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o‘tkaziladigan asosiy bayram tadbirida e’lon qilinadi va munosib taqdirlanadi.

Tanlovning final bosqichi g‘olib va sovrindorlariga:

1-o‘rin uchun – I darajali diplom va lavozim maoshining uch baravari miqdorida biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti hamda navbatdagi malaka toifasi;

2-o‘rin uchun – II darajali diplom va lavozim maoshining ikki baravari miqdorida biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti;

3-o‘rin uchun – III darajali diplom va lavozim maoshining bir baravari miqdorida biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti beriladi.

Shuningdek, ko‘rik-tanlovning respublika bosqichi g‘oliblari harbiy ta’lim muassasalariga tanlovdan tashqari o‘qishga kirish, yuqori lavozimga tayinlash uchun kadrlar zaxirasiga kiritish kabi imtiyozlarga ham ega bo‘ladi.

va jasoratni talab qilish bilan birga harbiy sohadagi eng ilg‘or tajribalarni o‘rganishni va amaliyotga tatbiq etishni ham taqozo etadi, – deydi katta leytenant Farrux Bobomurodov. – Bu borada so‘nggi yillarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shuning natijasida harbiylarimizning kasb mahorati, jangovar shayligi yil sayin oshib boryapti. Qurolli Kuchlarimizda an’anaga aylangan “O‘z kasbining ustasi” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilayotgan harbiy islohotlar samaradorligini yanada oshiryapti. Men ushbu ko‘rik-tanlovda qatnashish va g‘olib bo‘lish uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rdim. O‘z mahoratim ustida ishladim. Tajribali ofitserlardan savollarimga javob oldim. O‘ylaymanki, niyatimga yetib, g‘oliblikni qo‘lga kiritaman. Shaxsiy tarkib o‘rtasida bu tanlovga qiziqish juda katta. Ko‘rik-tanlov o‘zaro sog‘lom raqobatning, musobaqadoshlikning yuzaga chiqishiga, bu esa, o‘z navbatida, jangovar shaylikning oshishiga xizmat qilyapti. Hozir ham ko‘rib turganingizdek, ishtirokchilar bor bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishga harakat qilmoqda.

Furqat ERGASHEV,
“Vatanparvar”

> Qurolli Kuchlarimiz bugun o‘z qudrati bilan xalqimiz osoyishtaligi, mustaqilligimiz, tinchligimiz barqarorligini asrashga qodir metin qalqondir. Ayni vaqtda sohadagi islohotlar samarasini har qadamda his qilish mumkin. Ayniqsa, serjantlikning muhim kasbga aylangani, maqomi, nufuzi ko‘tarilgani, ya’ni qo‘shinlarda bosh serjant va bosh serjant yordamchisi lavozimining joriy etilgani shunday e’tibor va g‘amxo‘rlik sirasidan.

ISLOHOTLAR TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI



Zotan, serjantlar haqida gap ketganda, ularga bejiz armiyamiz tayanchi va suyanchi deya ta’rif bermaymiz. Chunki milliy armiyamizning asosiy negizini tashkil etuvchi, ofitser va askarlar tarkibi o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lgan bu kichik komandirlar o‘z aql-idroki, tashabbuskorligi va metindek irodasi bilan shaxsiy tarkibga namuna, komandirlarga esa har jihatdan ko‘makchi bo‘lib kelmoqda. Muhimi, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan ezgu amallar izchil davom etyapti. Qurolli Kuchlar akademiyasida bo‘lib o‘tgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari forumi ham shunday ulug‘ maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi professional serjantlar korpusi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash, qo‘shinlarda joriy etilgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari hamda brigada, batalyon, vzvod *(batareya)* va guruh serjantlarining bo‘linmalarda shaxsiy tarkibini boshqarish samaradorligi, harbiy intizomi, shuningdek harbiy xizmatchilar axloqiy-ruhiy holati va tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha faoliyatini yanada takomillashtirish, bosh serjant va bosh serjant yordamchilari hamda yo‘riqchi-serjantlarning xizmat faoliyatini tashkil etishda o‘zaro tajriba almashish maqsadida tashkil etilgan mazkur forumda mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov, Mudofaa vazirligi markaziy apparati tegishli tarkibiy bo‘linma boshliqlari, harbiy okrug qo‘shinlari qo‘mondonlari, ularning o‘rinbosarlari, harbiy qism komandirlari, bosh serjant va bosh serjant yordamchilari hamda yo‘riqchi-serjantlar ishtirok etdi.



Forumda so‘zga chiqqan mudofaa vaziri o‘z ma’ruzasida sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida milliy armiyamizda serjantlar korpusining mavqeyi va nufuzi sezilarli darajada oshgani, jumladan 2021-yilda jangovar brigada va batalyonlarda yo‘riqchi-serjant lavozimi joriy etilib, ularning harbiy unvonlari katta serjant darajasiga ko‘tarilgani, yo‘riqchi-serjant lavozimiga uchta kasbni mukammal egallagan, o‘z kasbining ustasi va ekstremal sharoitda yashovchanlik kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan harbiy xizmatchilarni tayinlash tizimi yaratilgani, shuningdek davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan tegishli farmonga muvofiq, armiyada bosh serjant va bosh serjant yordamchisi lavozimlari joriy etilgani, mazkur farmonga asosan saralab olingan va lavozimga tayinlangan serjantlarga “serjant-mayor”, “master serjant”, “shtab serjanti” hamda “birinchi serjant” yangi harbiy unvonlar berilganini alohida ta’kidladi. Serjantlarning bilim va malakasini oshirish maqsadida tashkil etilgan mahorat darsi va treninglarning amaliy ahamiyatiga to‘xtaldi hamda serjantlarning Xalqaro armiya o‘yinlarida erishayotgan yutuqlarini e’tirof etdi.

Shundan so‘ng Mudofaa vazirligi bosh serjanti va harbiy okruglar shtab serjantlari o‘z faoliyatlari yuzasidan chiqish qildi.

Forum dasturiga kiritilgan ma’ruzalarda, shuningdek serjant va oddiy askarlarga tegishli bo‘lgan masalalarni jamoaviy ko‘rib chiqish, muhokama qilish va tegishli takliflar ishlab chiqish tartibi, bo‘linmalarda shaxsiy tarkibning ijtimoiy muammolari, axloqiy-ruhiy holatini o‘rganish usullari, bo‘linmalarda yuzaga keladigan psixologik muammolar va ularning yechimi, shaxsiy tarkibda jangovar ruhni shakllantirish va vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish uslubiyati, harbiy xizmatchilar oilasida ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish masalalari yuzasidan ham qimmatli ma’lumotlar ulashildi.

SO‘Z FORUM ISHTIROKCHILARIGA



Mudofaa vazirligining oddiy askar va serjantlar faoliyatiga ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i – bosh serjant, shtab serjanti Alisher MIRZAKARIMOV:

– So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni boshchiligida milliy armiyamizda bugungi kun talablariga javob beradigan serjantlar korpusini shakllantirish, ularning tayyorgarligi va maqomini dunyoning eng ilg‘or armiyalariga monand tashkil etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, 2021-yilda jangovar brigada va batalyonlarda yo‘riqchi-serjant lavozimlari joriy etilib, ularning harbiy unvonlari katta serjant darajasiga ko‘tarildi. Ushbu tashabbuslarning davomi sifatida esa joriy yilning boshida Prezident farmoniga ko‘ra, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida bosh serjant va bosh serjant yordamchisi lavozimlari ham joriy etildi. Demak, davlatimiz tomonidan serjantlarga yuksak ishonch bildirilmoqda. Albatta, buni oqlashimiz kerak. Shuning uchun har birimiz yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanib, berilgan vazifalarga mas’uliyat bilan yondashishimiz shart.

Maqsadimiz – qo‘shinlarimizda ona Vatanimiz tinchligini, fuqarolarimiz osoyishtaligini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash yo‘lida tunni tongga ulab, sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan yurt o‘g‘lonlarining jangovar shayligini, jismoniy va ma’naviy dunyoqarashini yanada kengaytirish. Qurolli Kuchlar akademiyasida ilk bor o‘tkazilgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari forumida ham ayni shu masalalar diqqat markazida bo‘ldi. Malakali ofitser va serjantlarning ma’ruzalarini tingladik va ular bilan o‘zaro fikr almashdik. Muhimi, bu tadbir har bir ishtirokchi uchun o‘ziga xos tajriba maydoni bo‘ldi.



Mudofaa vazirligi bosh serjant yordamchisi, shtab serjanti Yodgorbek ATANAYEV:

– Bugungi kunda Mudofaa vazirligining harbiy okrug hamda harbiy qismlar miqyosidagi eng sara, bilimli, uzoq tajribaga ega serjantlarimiz ushbu lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqda. Dastlabki kundanoq biz qo‘shinlarda xizmat olib borayotgan oddiy askar va serjantlar faoliyatini chuqur o‘rganib, tahlil qilib chiqdik. O‘rganishlar natijasida shunga amin bo‘ldikki, hozirgi serjant, askarlarimizning shijoati juda baland. Ularda yangi bilimlar o‘rganishga ishtiyoq yuqori. Qalblaridagi shu ishtiyoq va shijoat sabab ular amaliy o‘quvlarda mustahkamlangan ko‘nikmalari asosida o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlov va musobaqalarda ko‘plab zafarlar quchmoqda. Muhimi, har biri nima uchun xizmat qilayotganini teran anglaydi. Umuman olganda, forum biz uchun juda ahamiyatli bo‘ldi. Chunki ushbu lavozimdagi hamkasblarimiz bilan uchrashdik, o‘zaro muloqot qildik. Kelgusidagi amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan muhim rejalarni belgilab oldik. Bu esa o‘z yo‘nalishimizda amalga oshiradigan ishlar samaradorligini oshirishga hissa qo‘shadi.



Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruv apparati oddiy askar va serjantlar faoliyatiga ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i – bosh serjant, shtab serjanti Ahror HOTAMOV:

– Ta’kidlash kerakki, biz – yangi joriy etilgan guruh serjantlari, yo‘riqchi-serjant va vzvod serjantlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda ish olib boryapmiz. Chunki bu to‘rt pog‘onali boshqaruv tizimi qo‘shinlarda shaxsiy tarkibni yo‘naltirishda samaradorligi, harbiy intizom, axloqiy-ruhiy holati va jangovar tayyorgarlik darajasini oshirishga zamin yaratadi. Qolaversa, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamon yangi qurol-aslahalar, harbiy texnikalar, uchuvchisiz uchish apparatlari to‘g‘risida doimiy ravishda shaxsiy tarkibning bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish talablarini qo‘ymoqda. Shundan kelib chiqib, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda, bo‘linma komandirlari bilan hamkorlikda muddatli harbiy xizmatchidan tortib serjantlarning ham individual tayyorgarligi va kasbiy bilimlarini oshirishga e’tibor qaratishimiz zarur. Buning uchun sharoit yaratilgan, qolaversa yuksak ishonch ham bildirilgan. Ana endi faqat ishlashimiz kerak. Natijalar ko‘rsatishimiz shart. Aslida, har bir harbiy xizmatchi o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lishga intilishi lozim. Mana shu yo‘lda bor kuch va imkoniyatlarini to‘liq safarbar etgan harbiy xizmatchi doim ilg‘orlar safida bo‘ladi.



Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparati oddiy askar va serjantlar faoliyatiga ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i – bosh serjant, shtab serjanti Bobur RAHMONOV:

– Bugungi kunda milliy armiyamiz jangovar imkoniyatlarini yanada oshirish, harbiy xizmatchilarning har qanday vaziyatda qo‘yilgan topshiriqlarni tezkor va aniq bajarish borasidagi ko‘nikmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada jang olib borishning zamonaviy usul va uslublari puxta o‘zlashtirilmoqda. O‘tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatlarda qo‘shinlarni qo‘llash, kuch va vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, harbiy xizmatchilarning yuqori darajadagi tayyorgarligini ta’minlashga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Umuman olganda, ehtimoliy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashishda bo‘linmalarning jangovar shay ekani amalda o‘z isbotini topyapti.

Demakki, olib borilayotgan ishlar o‘z natijasini bermoqda. Bu haqda mazkur forumda ham alohida e’tirof etildi. Sohadagi o‘zgarish va yangilanishlar haqida gapirilganda davlatimiz tomonidan serjantlar korpusiga katta e’tibor berilib, nufuzi ko‘tarilgani, shu orqali bizga yuksak ishonch bildirilgani ta’kidlandi. Bundan boshqa safdoshlarim qatori men ham ruhlandim. Bundan buyon ham xizmat vazifamizga mas’uliyat bilan yondashib, doim o‘z mahoratimiz ustida ishlashni kanda qilmay, kasbiy malakamizni tizimli ravishda oshirib borishga va’da beramiz.



Sharqiy harbiy okrug boshqaruv apparati oddiy askar va serjantlar faoliyatiga ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i – bosh serjant, shtab serjanti Elmurod ARIPOV:

– Bosh serjant va bosh serjant yordamchilari har tomonlama toblangan, jangovar shayligi va intellektual salohiyati yuqori, ma’naviy olami boy, zamonaviy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan, jismonan baquvvat bo‘lishi kerak. Ularning gardanida ko‘plab mas’uliyatlar bor. Xususan, shaxsiy tarkib bilan olib boriladigan o‘quvlarni bugungi kun talablariga mos tarzda o‘tkazish, yangicha yondashuvlarni qo‘llash, samara beradigan uslublardan foydalangan holda safdoshlarining ko‘nikmalarini oshirishga doimo ahamiyat qaratish kerak. Demak, izlanish va o‘rganish orqali sohaning yetuk mutaxassisiga aylanish mumkin. Mashg‘ulotlarda bor bilim, kuch va salohiyatlarimizni to‘liq safarbar etib, ana shu natijalarga erishamiz. Chunki jangovar shayligi, jismoniy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan harbiy xizmatchi berilgan har qanday vazifani aniq va tez bajaradi.

Forumga kelsak, bu yerda olgan bilim va ko‘nikmalarimizni albatta qo‘shinlarga joriy etamiz. Vatanimiz sarhadlarini himoya qilish yo‘lida kerak bo‘lsa, jonimizni fido qilamiz. Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan biz, serjantlarga bildirilayotgan bu ishonchga javoban Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yanada ko‘taramiz!

Podpolkovnik Gulnora XODJAMURATOVA,
kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

HUQUQ VA ERKINLIKLAR KAFOLATI

Jarayonlarning avval boshidan xalq fikri, xohish-istagiga tayanilgani katta ahamiyatga ega bo‘lib, 65 foizga yangilangan O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qilish yangi tarixiy burilish bosqichiga qadam qo‘yganini anglatadi. Asosiy qonunning har tomonlama yangilanishi mamlakatimizda o‘tgan olti yilda erishilgan yutuqlar, mustaqillik yillarida erishilgan eng muhim marralar mustahkam huquqiy va iqtisodiy asoslardan dalolat beradi.

O‘zbekistonning keksa avlodi biladiki, amaldagi Konstitutsiya murakkab tarixiy davrda, davlat yaxlitligi, ichki va tashqi siyosat omillarining ta’siri ostida bo‘lgan davrda qabul qilingan. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiya tufayli O‘zbekistonda asosiy ne’mat – tinchlik, barqarorlik va osoyishtalik saqlanib qoldi.

MAMLAKAT KONSTITUTSIYASI uning mustaqil ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar rivojlanishining huquqiy asosini yaratdi, yangi qurilgan davlatning mohiyati va maqsadlarini belgilab berdi. O‘zbekistonda parlamentarizm instituti tashkil etildi va sezilarli darajada mustahkamlandi, joriy yilning oktabr oyida demokratik tamoyillar asosida o‘tkazilgan saylovlar natijasida ikki palatali parlament shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda, jumladan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining samarali hamkorligi amalga oshirilmoqda. Keng ko‘lamli demokratik, sud-huquq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Barchamizga ma’lumki, amaldagi Konstitutsiya qabul qilinganidan beri unga 16 marta o‘zgartirishlar kiritilgan va bu mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.

Shu bilan birga, 2016-yilda boshlangan siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarning jadal jarayoni hozirgi konstitutsiyaviy islohotga obyektiv ehtiyoj tug‘dirdi. Ushbu obyektiv zarurat 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini amaliy amalga oshirishning mantiqiy bosqichi va davlat rahbari tomonidan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning tubdan yangi maqsad va vazifalarini hal etishning muhimligiga asoslanadi.

Davlatimiz rahbari mamlakatdagi konstitutsiyaviy islohotlarni hayotning o‘zi talab qilganini va bizning o‘zgarishlarimiz mantig‘idan kelib chiqishini hamda konstitutsiyaviy islohot Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining mohiyati va mantig‘idan, xalqimizning istak va takliflaridan kelib chiqqanligini ta’kidladi.

Prezidentimiz yangilangan Asosiy qonun chinakam xalq Konstitutsiyasiga aylanishini ta’kidladi, chunki bu jarayonda turli kasb va ijtimoiy mavqega ega odamlar tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va istaklar inobatga olinadi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini yanada modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish, sud-huquq tizimini demokratlashtirish, ijtimoiy himoya darajasini va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan keng huquqiy baza yaratilganini ko‘ramiz. Birgina so‘nggi olti yil ichida **Konstitutsiyaning 32 ta moddasiga, 77 ta qonunga, 32 ta Prezident farmoni va qarorlariga, 57 ta hukumat qaroriga va 38 ta boshqa me’yoriy hujjatga 38 ta o‘zgartirish kiritildi.** Mamlakatimizning qonun ustuvorligi sohasidagi xalqaro reytingi bir necha pog‘onaga ko‘tarildi. Bularning barchasi o‘tgan qisqa davrda mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayoti tubdan o‘zgarganidan dalolat beradi. Sud tizimining mustaqilligini ta’minlash, sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiyaning ustunligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud jarayoniga muhokama tamoyillarini joriy etish, aholining sud-huquq sohasiga ishonchini oshirish bo‘yicha qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

KONSTITUTSIYANING yangi tahririda har bir fuqaroning yozishmalar, telefon orqali suhbatlar, pochta, elektron va boshqa ma’lumotlari sir bo‘lish huquqiga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Jamiyatning adolatga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida “Xabeas korpus” instituti kengaytirildi va tergov ustidan sud nazorati kuchaytirildi.

Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasi tufayli Yangi O‘zbekistonni barpo etishning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi. Xususan, Asosiy qonun fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytiradigan normalarni o‘z ichiga oladi.

Davlat qurishning yangi strategik maqsadi ijtimoiy davlatni shakllantirish sifatida belgilanadi. Ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari joriy etildi, konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlanib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlari yaratildi.

Oldingi Konstitutsiyaga muvofiq amalda bo‘lgan **“davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat”** tamoyiliga o‘zgartirildi. Bu shuni anglatadiki, har qanday masalada, birinchi navbatda, inson manfaatlari ta’minlanishi kerak. Inson huquqlari haqida gap ketganda, bu huquq amalda qanday ta’minlanishi juda muhimdir. Shu maqsadda har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari, xatti-harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga murojaat qilish huquqi kafolatlanadi.

Konstitutsiyada nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga oid yangi normalar sud organlari zimmasiga katta mas’uliyat yukladi. Asosiy qonunimizda insonning davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatidan kelib chiqadigan qonunchilikdagi barcha nizolar va noaniqliklar shaxs foydasiga talqin qilinishini nazarda tutadi. Bu huquqni qo‘llash amaliyotiga, inson huquqlari va erkinliklari bilan bog‘liq masalalarga yangicha yondashuvlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqardi.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Konstitutsiyaning yangi tahriri ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash uchun shaxsan javobgardirlar. Konstitutsiyaning yangi tahriri eng yuqori yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, u davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida bevosita va qat’iy qo‘llaniladi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni hibsga olish muddati 72 soatdan 48 soatgacha, dastlabki tergov, hibsga olish va uy qamog‘i muddati bir yildan 7 oygacha qisqartirildi. Sudlarga, agar ular qamoq yoki uy qamog‘i ko‘rinishidagi profilaktika chorasini qo‘llashdan bosh tortsalar, muqobil profilaktika choralarini qo‘llash huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, **qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 7 ta qonun loyihasi Oliy sud tomonidan 2010–2014-yillarda Qonunchilik palatasiga, 4 ta qonun loyihasi Oliy xo‘jalik sudi tomonidan taqdim etilgan bo‘lsa, 2015–2019-yillarda bu ko‘rsatkich 40 tani, 2024-yilning birinchi yarmi natijalariga ko‘ra, 35 tani tashkil etdi**. Oliy sud sudyalari va xodimlari siyosiy partiyalar va fraksiyalar, qo‘mita va komissiyalar tomonidan o‘tkaziladigan davra suhbatlari, seminarlar, konferensiyalarda, qonun loyihalarini muhokama qilishda ham faol ishtirok etadilar. Sud-huquq tizimiga oid me’yoriy hujjatlar islohotlarga muvofiq yangilanmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar davlatimiz rahbarining xalq qonun muallifi, degan g‘oyasi naqadar hayotiy ekanini yaqqol namoyon etdi. Xorijiy ekspertlar fundamental umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarni ilg‘or xalqaro standartlarga mos ravishda o‘zida mujassam etgan yangilangan Konstitutsiya loyihasining demokratik va insonparvarligini qayd etmoqda.

KONSTITUTSIYAVIY QONUN loyihasini tayyorlash jarayonida BMT, YXHT, ShHT, YI, turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar tomonidan qabul qilingan 400 dan ortiq xalqaro hujjatlar, 190 ga yaqin davlat konstitutsiyalari sinchkovlik bilan tahlil qilingan. Bularning barchasi yangilangan Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonining puxta ekanligini tasdiqlaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar tajribasi va eng yaxshi xalqaro konstitutsiyaviy tajriba, o‘zbek xalqining milliy an’analari va mentaliteti asosida ishlab chiqilgan Asosiy qonun ularning demokratik tanlovini mustahkamladi.

Konstitutsiyada davlat kambag‘allikni kamaytirish, ish bilan ta’minlash va ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha bir qator yangi majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi belgilangan. Konstitutsiyada har bir fuqaroning uy-joy olish huquqi va davlatning uy-joy qurilishini rag‘batlantirishi ushbu maqsadlarga erishish uchun mustahkam poydevor yaratadi.



54-modda

Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.

Yangilangan Konstitutsiyada yoshlarga oid alohida bobning paydo bo‘lishi yoshlar siyosati Yangi O‘zbekistonning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanidan dalolatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda sud tizimini tashkil etish, sudlarning maqomini belgilash, sud tizimining mustaqilligini ta’minlovchi konstitutsiyaviy normalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud korpusini tashkil etish, sud ishlarini malakali sudyalar tomonidan yuritilishini ta’minlashning muhim kafolatlari belgilangani odil sudlov sifatini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud hokimiyati va jamoatchilikning sudlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda.

KONSTITUTSIYA O‘zbekiston xalqini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, farovonligini oshirish, huquq va manfaatlarini yanada mustahkamlash uchun poydevor yaratadi va mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyalarining ishonchli kafolatidir. Shubhasiz, yangilangan Konstitutsiya bilan O‘zbekiston tarixiy taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqadi. Bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Shubhasiz, yangilangan Konstitutsiya adolatli jamiyat, ozod va obod Vatan qurish yo‘lidagi ulkan qadam bo‘ldi.

Zero Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir.

Jamshid RAHMONOV,
Toshkent harbiy sudining raisi

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

QONUNLAR USTUNLIGINING STRATEGIK OMILI

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o‘tgan yili 30-aprelda referendumda umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Asosiy qonunimiz yurtimizning “butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”. Shu bois so‘zsiz yurt-ulus makoni uchun ushbu Konstitutsiya tan olingan huquqiy oliy qadriyat hisoblanadi. Har qanday tahdid va tajovuzlardan to‘liq hamda yuridik jihatdan himoyalangan Asosiy qonunimiz O‘zbekistonning jahon hamjamiyati hamda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan do‘stona va qon-qardoshlik munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinch-totuvlik va osoyishtalik asosida mustahkamlash uchun milliy rivojlanishga intiladi.

Konstitutsiyamiz xalqimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, odamiylik, o‘zga millat va elatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish kabi ezgu fazilatlar ruhini o‘zida aks ettirgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, Bosh qomusimizda “inson – jamiyat – davlat” tamoyilini tatbiq qilishga oid normalar soni 3,5 barobar oshirildi, 40 dan ziyod yangi konstitutsiyaviy huquq muhrlanib qo‘yildi. Asosiy qonunimiz xalqimizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan huquqiy hamda adolatli davlat qurish yo‘llarini keng ochib berdi.

Yurtboshimizning birdamlik yo‘lidagi harakatlari, ilgari surayotgan tashabbuslari, fidokorligi bejiz emas. Xalqlarimiz o‘tmishidagi qora kunlar, turli istilo va istibdodlar o‘zaro nifoq hamda ichki nizolar tufayli ro‘y berganiga tarixda misollar ko‘p. Hamkorlik va yelkadoshlik muvaffaqiyatlar sari yetaklashiga esa birgina sportchining g‘alabasi yorqin misol. O‘z qo‘shni mamlakatiga qo‘shin tortayotgan bugungi alg‘ov-dalg‘ov zamonda buning qadr-u qimmatini so‘z bilan ifodalash nihoyatda mushkul...

Akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom o‘zbek-qozoq xalqini bir kitobning ikki sahifasiga o‘xshatganida qozoq oqini Askar To‘qmag‘ambetov birodarligimizni tavsiflab, o‘z she’rida *“Bir daraxtning soyasi tushga qadar meniki, tushdan keyin seniki”*, deya lutf etgan edi. Umuman olganda, besh qo‘shni mamlakatning o‘zaro hamjihatligi yuksak darajaga ko‘tarilib bormoqdaki, birlashgan, bir maslak va g‘oya asosida olg‘a harakat qilgan davlatlar vaqti kelib, katta yutuqlarga erishishiga ishoradir. Bu yutuqlar xalqimizning tahsini hamda xalqaro hamjamiyatning e’tirofini qozonmoqda. Xususan, BMT tomonidan “Yoshlar strategiyasi – 2030” loyihasini namunaviy tarzda amalga oshirish bo‘yicha 10 ta mamlakatdan biri sifatida aynan O‘zbekiston tanlab olingani har birimizni quvontiradi.

Ikkita muhim e’tirofni keltiraman: birinchidan, 2022-yil – Buxoro shahri Turkiy dunyo yoshlari poytaxti, ikkinchidan, 2024-yil – Toshkent shahri MDH mintaqasida birinchi yoshlar poytaxti deb e’lon qilindi.

Darhaqiqat, yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularni kamol toptirish masalasi davlatimizning doimiy e’tibor markazida. Zero Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ***“Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta yorug‘ bo‘ladi”***.

Hozirgi yuksalayotgan istiqbolli mamlakatimiz o‘z strategik taraqqiyotiga ko‘ra, insonlarini har qanday umumqadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda hamda aql-idrok g‘oyasi asosida jipslashtirdi. Shavkat Mirziyoyevning qat’iy ta’kidiga ko‘ra, *“Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan jamiyat va davlat yutadi”*. Shu o‘rinda bu borada Yurtboshimizning eski g‘oyaviy qarashlarga nisbatan aytgan va hozirgi milliy taraqqiyotimiz ravnaqi uchun nihoyatda ustuvor hisoblangan yangi g‘oyaviy tamoyilni keltiramiz: *“Biz ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini o‘zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa jamiyat va davlat manfaati barcha harakatlarimizning negiziga qo‘yildi.*

Hayotimizda davlat – insonlar uchun degan xalqchil g‘oya izchillik bilan qaror topib bormoqda. “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi”.

Darvoqe, inson – jamiyatda bioijtimoiy voqelik; shaxs esa ijtimoiy hodisa. Inson faqat davlat va jamiyatda shaxs bo‘lib yetishishi va o‘zini to‘laqonli namoyon etishi mumkin. Shaxsning o‘ziga xos belgilaridan muhimi uning ijtimoiy marralarga egaligi hisoblanadi. Ana shu marralar tufayli jamiyat strategik taraqqiyotiga nihoyatda katta hissa qo‘shadi. Shu orqali yangi g‘oyalar, ochiqlik va adolat sari yangi odimlar, yangi marralar bilan Yangi O‘zbekistonni barpo etishda barchamiz o‘z hissamizni qo‘shamiz. Yurtimizda inson qadrining eng oliy o‘ringa qo‘yilayotgani zamirida uning erkini va huquqini himoya qilishni ta’minlash, insoniy istaklarini ro‘yobga chiqarishdek ezgu niyat bor. Ya’ni ajdodlarimiz, ayniqsa, jadid bobolarimiz o‘z axloqi, hayotiy pozitsiyalari orqali inson haq-huquqlarini muayyan darajada tarannum etishi, yangi davlat qurish asoslariga tamal toshi qo‘yishda jonbozlik ko‘rsatildi.

Zamonaviy dunyoda esa o‘sha milliy qadriyatlarimiz ma’no-mazmunini o‘zida jamlagan Konstitutsiyamiz orqali haq-huquqlarimiz mustahkamlandi. Ayni damda Yangi O‘zbekistonda tashqi siyosat xalqlar orasida o‘zaro hurmat, do‘stlikka asoslanishiga e’tibor berilmoqda. Bu ham ajdodlardan meros qadim bitiklardagi ezgulik tarannumi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Karim NORMATOV,
tarix fanlari doktori, professor



64-modda

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar.

Fikr

XALQ VA ARMIYA BIR TAN-U BIR JONDIR!

Mustaqil mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o‘laroq, jamiyatimizning barcha jabhalarida munosib yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Aholining tinch, osuda va farovon hayot kechirishini ta’minlash ana shu sa’y-harakatlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Tinchlik, osoyishtalik, avvalo oiladan, mahalladan boshlanadi. Shu ma’noda yurtimizdagi har bir aholi yashash joylarida ichki ishlar xodimlari, uchastka nozirlari, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida fuqarolarni ogohlikka da’vat etuvchi tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Tabiiyki, inson qayerda dunyoga kelsa, ana shu yer uning uchun qadrli Vatan hisoblanadi. Kindik qoni to‘kilgan joy inson uchun hech narsaga alishib bo‘lmaydigan, hamma narsadan qimmatli dargohdir. Vatanni sevish, uni sog‘inib yashash insoniyat fitratida mavjud bo‘lgan nozik hisdir. Biror sabab bilan Vatanini tashlab, boshqa yurtlarga ketgan kimsa eng og‘ir damlarida uni qo‘msab, ko‘z oldiga keltirishi va tug‘ilib o‘sgan zamini haqida biror qayg‘uli xabar eshitganda qalban ezilishi, yutuqlaridan quvonishi yurtga bo‘lgan muhabbatning belgisidir.

Tarixdan ma’lumki, biror millat boshqa bir millatni tahqirlamoqchi yoki oyoqosti qilmoqchi bo‘lsa, avvalo uning Vatanini bosib olib, vayron qilgan yoki quvib chiqargan. O‘z Vatanining dushmanlar qo‘lida qolganini ko‘rgan millat uchun bundan ortiq xo‘rlik va azob bo‘lmasa kerak. Zero Vatan, millat, din tushunchalari inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir.

Xalqimizda “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l”, degan hikmatli gap bor. O‘z huzur-halovatini o‘ylab, o‘zgalarni unutgan kishi hech qachon ona Vataniga, xalqiga nisbatan sadoqatli bo‘lolmaydi.

Vatan himoyasi uchun harbiylar safida turish ham dunyoviy, ham diniy tarafdan yuksak e’tirofga sazovor sanaladi. Xususan, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Bir kecha-kunduz “ribot” *(ya’ni dushman qarshisida turish)* bir oy tutilgan nafl ro‘za va o‘qilgan tungi namozdan yaxshidir”, – deb marhamat qilganlar *(Imom Muslim rivoyati)*.

Hakimlar aytadi: “Kishining vafodorligi uning o‘z Vatani uchun qayg‘urishidan, birodarlarini sog‘inishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga o‘kinib yashashidan bilinadi”. Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi uni Vatanini himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo‘shishga undashi lozim.

Oxirgi olti yilda harbiy sohaning barcha yo‘nalishlarida bo‘layotgan kompleks choralar va islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi ham, qo‘shinlarning tayyorgarlik darajasi ham o‘zgardi. Harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi. Bu ishlar izchil davom ettirilib, jangovar bo‘linmalar imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Davlat



chegaralari xavfsizligini ta’minlashning yangi tizimi amaliyotga joriy qilinmoqda.

Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor tasdiqladi. Bundan tashqari, Vatan himoyasida turish eng oliy burch ekani yana bir bor aniq mustahkamlab qo‘yildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 64-moddasida shunday yoziladi: O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”.

Vatanimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo‘lgan O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudratini oshirish va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, xalq va armiya bir tan-u bir jondir tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ‘ib etish alohida ta’kidlanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilish mumkinki, Vatan himoyasi barcha O‘zbekiston fuqarolarining oliy burchi sanaladi va o‘z navbatida, Yangi O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida aniq belgilanishi esa ushbu ishlarning izchil davom ettirilishini kafolatlaydi.

Sayyora BOTIROVA,
Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti

Farovonlik qomusi

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo‘lib, unda jamiyat va davlatning muhim tamoyillari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat organlarining tuzilishi va faoliyati belgilab qo‘yiladi. Har bir demokratik jamiyatda Konstitutsiya jamiyatni boshqarishning asosiy prinsiplarini va qadriyatlarini ifodalaydi. Shuning uchun Konstitutsiya faqat yuridik hujjat sifatida emas, balki xalqning o‘zligini va erkinligini himoya qilishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ushbu maqolada Bosh qomusimizning roli, ahamiyati va uning davlatni boshqarishdagi o‘rni haqida so‘z yuritamiz.



DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING ASOSI



Oybonu TO‘XTASINOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi akademik litsey o‘qituvchisi

Davlat suvereniteti

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi davlatning boshqaruv shakli va suverenitetini belgilab beradi:

“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”.

Bunda davlatning asosiy tamoyillari va suverenligi mustahkamlangan. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari teng ma’nolidir, bu esa davlatning yagona va bo‘linmasligini ifodalaydi. Davlatning suvereniteti uning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda mustaqillikni ta’minlaydi.

Xalq hokimiyatchiligi

7-modda xalq davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini ko‘rsatadi: “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir”.

Bu tamoyil davlat boshqaruvi tizimining barcha darajalarida xalqning manfaatlari asosiy o‘rinda ekanini belgilaydi. Davlat hokimiyati faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiriladi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida faoliyat yuritadi. **10-modda** bu masalani quyidagicha izohlaydi: “O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin”.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning vakolatlariga davlat siyosatini belgilaydigan qonunlarni qabul qilish, davlat byudjetini tasdiqlash va ijro hokimiyati faoliyatini nazorat qilish kiradi. Oliy Majlisning ikki palatali tizimi demokratik boshqaruvni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

11-modda davlat hokimiyatining uch tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o‘rtasida mustaqillik prinsipini belgilaydi:

“O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi”.

Bu tamoyil demokratiyaning asosiy belgilaridir, hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligini kafolatlaydi. Har bir tarmoq o‘ziga yuklangan vazifalarni bajaradi va davlat boshqaruvining muvozanatini ta’minlaydi.

Sud hokimiyati davlatning demokratik tamoyillarini amalga oshirishda asosiy vositalardan biridir. Bu tizimning vazifasi qonunlarning to‘g‘ri ijrosini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishdir. Sud hokimiyati Konstitutsiya va qonunlar asosida ishlaydi va hech qanday davlat organiga bo‘ysunmaydi.

Bosh qomusimizning **12-moddasi**da hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida tan olinishi mumkin emasligi ta’kidlangan. Bu tamoyil jamiyatda xilma-xillikni rag‘batlantiradi va demokratik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Konstitutsiya va qonunning ustunligi

15-moddada qonun ustuvorligi tamoyili e’tirof etilgan: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi”.

Mazkur prinsip davlat boshqaruvi tizimida qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga zid kelmasligi shart. Bu esa davlat organlari faoliyatining shaffofligi va javobgarligini ta’minlaydi.

Xalqaro hamkorlik tamoyillari

Konstitutsiyaning **17-moddasi**da davlatning tashqi siyosatini xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillariga asoslanishi qayd etilgan. Bu o‘z navbatida davlatlarning suveren tengligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro hamkorlik

18-moddada ko‘rsatilganidek, mamlakat davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga intilmoqda. Bu esa O‘zbekistonni xalqaro hamjamiyatda ishonchli hamkor sifatida tanitadi.

Davlatning BMT va boshqa xalqaro tashkilotlardagi faoliyati bunga yorqin misoldir.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat boshqaruvi tizimining huquqiy asoslarini belgilab, davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi va hokimiyatlar bo‘linishi tamoyillarini kafolatlaydi. Qonunchilik, ijro va sud hokimiyatining o‘zaro hamkorlikda ishlashi davlat boshqaruvini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqning davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki, qonun ustuvorligi va xalqaro tamoyillarga sodiqlik davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu tamoyillarni hayotga tatbiq qilishda har bir fuqaro va davlat organlarining mas’uliyat bilan yondashuvi zarur. Bu esa O‘zbekistonning tinchlik, farovonlik va adolat sari ishonchli qadamlarini ta’minlaydi.

Huquqiy himoya

INSON SHA’NI, QADR-QIMMATI RAMZI

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi va milliy istiqlolga erishuvi xalqimizning buyuk tarixiy yutug‘idir. Mustaqillik – ajdodlarimiz bergan mislsiz qurbonlar evaziga qo‘lga kiritilgan ulug‘ ne’mat. Milliy istiqlolga erishish sharofati bilan o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligida O‘zbekiston Respublikasining tamomila yangi demokratik Konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat yuzaga keldi.

Konstitutsiya dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil topganini qonunlashtirdi. Butun jahon ahliga xalqimizning xohish-istaklari bayon qilinib, unda o‘zbek davlatchiligini zamonaviy ma’rifiy asoslarda qayta tiklash, tinch-totuv yashash va osoyishtalikni barcha choralar bilan mustahkamlash, demokratiyani chuqurlashtirish, inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiq qolish, adolatli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar osoyishtaligini hamda milliy hamjihatlikni ta’minlash kabi oliyjanob niyatlar e’lon qilindi.

Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topdi. Shuni aytish joizki, yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadamdir. Asosiy qonunimizda birinchi marta “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” *(1-modda)*, degan norma belgilandi.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlandi. Ushbu bob o‘z ichiga 19–64-moddalarni olib, to‘laqonli inson hamda fuqarolar manfaatini ifoda etadi.

Ushbu bo‘lim demokratik prinsiplarga asoslanib, inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi va sha’ni kabi asosiy qadriyatlar yuqori darajada himoya qilinishini ta’kidlaydi. Bu yerda, shuningdek, demokratiya umuminsoniy tamoyillarga tayanishini va demokratik huquq va erkinliklarning Konstitutsiya va qonunlar tomonidan himoya qilinishini ifodalaydi. Bu tushunchalar O‘zbekistonning davlat tizimi va huquqiy asoslarida inson huquqlarini yuqori o‘rinda tutish, fuqarolarni erkin va teng huquqli hayotini kafolatlab berishni ko‘zda tutadi.

Davlat hokimiyati organlari tarkibining yosharib borayotgani, ular tarkibida xotin-qizlarimiz o‘rni ortib borayotgani alohida e’tirofga loyiq hisoblanadi.

Gender tenglik tamoyillarini Konstitutsiyada belgilash davlatning ayollarga bo‘lgan alohida e’tiborini ko‘rsatishi bilan birga, xotin-qizlarning davlat va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirib, imkoniyatini namoyon etishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda gender tenglikni ta’minlash borasidagi ana shunday izchil islohotlar samarasida xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki yanada kuchayadi.

Bosh qomusimiz muqaddimasida O‘zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan “fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida” qabul qilgani alohida ta’kidlangan. Shu ma’noda, Asosiy qonunimiz – biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki milliy g‘urur-iftixor, kerak bo‘lsa, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat’i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanadi.

Bahromjon KUZIMURATOV,
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi o‘quvchisi

Munosabat

QOMUS – MILLAT G‘URURI

Joriy yilda Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligi keng nishonlanadi. Bu bayram har bir fuqaro qalbidagi iftixor ramzi sanaladi. Boisi bizning huquq va burchlarimiz aynan Bosh qomusimiz orqali ifodalanadi.

Mustaqil davlatda ichki va tashqi siyosat, demokratiya, inson huquqlari kafolati, odillik ta’minlanishi birinchi galda davlatning Asosiy qonuni – Konstitutsiyasining mavjudligi bilan bog‘liqdir. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillaridanoq O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Natijada davlat qurilishi jabhalaridagi munosabatlar, milliy qonunchiligimizning barcha sohalarini tartibga soluvchi aniq huquqiy mexanizm yaratildi.

Bosh qomusimizda, ayniqsa inson omili yuksak darajaga ko‘tarilgan. Ya’ni unda har bir shaxsning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi belgilangan. Hech bir fuqaro qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi aniq bayon etilgan. Bu yo‘l bilan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolar hayoti va ularning erkin nafas olish hamda so‘z erkinliklari asosiy o‘rinda turishi yaqqol belgilab qo‘yildi.

Qolaversa, so‘z va e’tiqod erkinligi, axborot izlash, olish, uni tarqatish huquqi, fikr yuritish va uni ifodalash, vijdon erkinligi kabi o‘nlab huquqlarimiz Konstitutsiyada shaxsiy huquqiy erkinliklar sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu



borada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi misolida ko‘rish mumkin.

– Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasida shaxsning burchlariga oid normalar mavjud, – deydi TDShU dotsenti, yuridik fanlar doktori Farhod Primov. – Birinchidan, har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkin. Ikkinchidan, har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishi hamda hurmat qilinishini ta’minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak. Uchinchidan, ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish BMTning maqsad va prinsiplariga zid bo‘lmasligi kerak.

Konstitutsiyamizda fuqarolar siyosiy huquqlarining kafolatlangani ularning o‘z qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish borasida, shuningdek jamiyat va davlat ishlarida ishtirok etishda siyosiy faolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish, bepul malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. Bu yurtimizda fuqarolarga g‘amxo‘rlik qilish, odamlar salomatligini mustahkamlash, bir so‘z bilan aytganda, har bir shaxs uchun qayg‘urish davlat e’tiborida ekanini anglatadi. Bularning barchasi amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida xalq manfaati namoyon etilishining asosidir.

O‘z navbatida, fuqarolar ham yurt taqdiriga befarq bo‘lmay, jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi Bosh qomusimizga bo‘lgan hurmatni anglatadi. Konstitutsiyaga hurmat esa Vatanga sadoqatni bildiradi. Bu jamiyat hayotining mezoni bo‘lgan Konstitutsiyani har tomonlama chuqur o‘rganish, uning ma’nosini to‘la anglab, hayotimizning doimiy qo‘llanmasiga aylantirishni taqozo etadi. Konstitutsiyamizdagi qoidalarga amal qilish Vatanga sadoqatimizning asosiy va zarur bo‘lgan belgilaridandir.

Nodira ABDUSATTOROVA

Kelajak bunyodkorlari

YOSHLAR KONSTITUTSIYASI

Yunon olimi Aristotel “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, deganida haq edi. Bu fikrni tarix sahifalari doim isbotlab kelgan. Bizning zaminga ko‘ra olgan Birinchi va Ikkinchi Renessans hosilasi ham tarbiya va ta’lim uyg‘unligida ekanligi tobora oydinlashib bormoqda. Bu haqda so‘z borganda, avvalo, Prezidentimiz uzoq yillar “mudroq ta’lim iskanjasi”da yashab kelgan ustoz va murabbiylar, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qarata boshlagani, uyg‘oq fikrni tarbiyalash yo‘lidagi jonkuyarligi ko‘z oldimizga keldi.

Bugun biz davlatimiz taraqqiyotida Uchinchi Renessansni Konstitutsiyamiz bilan muhrlab oldik, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Erishayotgan barcha natijalar zamirida bilim, ilm-fan, kapitalni to‘g‘ri yo‘naltirish san’ati bo‘y ko‘rsatmoqda. Yangi O‘zbekistondagi katta islohotlarning bosh asosi ham shu maqsad uchun qurilgani keyingi yillarda tobora oydinlashib bormoqda. Bu avvalo, yoshlar siyosatida o‘z aksini topmoqda. Jumladan, mamlakatimizda yoshlar ta’lim-tarbiyasi, huquq va manfaatlariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Zamonaviy islohotlar natijasi o‘laroq, yoshlarning bilimi, iqtidorini rivojlantirish maqsadida mutlaqo yangi shakl va mazmunda barpo etilgan Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi, barcha viloyatlarda yaratilayotgan yoshlar texnoparklari va biznes akseleratorlari, tashkil etilayotgan turli tanlovlar buning isboti deya olamiz.

Yangi O‘zbekiston bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatiga, undagi yoshlar esa mamlakatning ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti, deya ishonch bilan aytish mumkin.

Mamlakat rahbari shu sababdan “Bugun hech bir soha yo‘qki, yoshlar muvaffaqiyatga erishmayotgan bo‘lsa. Yoshlarning yo‘lini ochib bersak, ularga yelkadosh bo‘lsak, yanada ulkan natijalarga erishamiz. Mening eng katta ishongan kuchim davlatimizning eng katta boyligi bu – yoshlar”, deb ta’kidlaydi. Shu bois Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘vor maqsad vazifa qilib qo‘yilgan ekan, bugunimizning Xorazmiylari, Beruniylari va Mirzo Ulug‘beklari yetishib chiqishiga shubha yo‘q.

Tahlikali zamonda yashayapmiz. Dunyo ko‘zdagi yosh kabi qalqib turibdi. Olis va yaqin mamlakatlarda onalar farzandlari ochlikdan o‘lmasligi uchun aziz jonini sotmoqda. Otalar bolalariga bir burda yemak topish ilinjida o‘zini o‘tga ham, cho‘qqa ham urmoqda, ularning ko‘ksida zardob qaynayapti. Yangi O‘zbekistonda esa yoshlar davlat himoyasida. O‘zbekiston yoshlar mamlakati. Yangilangan Konstitutsiyamizda yoshlar masalasi alohida bob darajasiga olib chiqilishi, Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligiga yaqqol ishoradir. “Mening davlatim”, “Mening Konstitutsiyam” degan nuqtayi nazardan takliflar berishdi. Takliflarning 60 foizi aynan yoshlardan kelib tushgani bunga yaqqol dalildir. Zero bugungi yoshlar o‘z haq-huquqlarini yaxshi biladi, mamlakat hayotiga va kelajagiga befarq emas.

Yoshlar taqdim etgan takliflar Qomusimizda o‘z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish, ularning ma’naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan rivojlantirilishi, o‘z huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi majburiyatini davlat o‘z zimmasiga olishi yoshlarga katta motivatsiyadir.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan davrda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga oid ko‘plab huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Qonunlar va qonunosti hujjatlar



51-modda

Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli.

Oliy ta’lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega.

o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Birgina Konstitutsiya uzoq muddatli barqaror hujjat hisoblanadi. Shu bois o‘tgan davrdagi yangiliklarning Bosh qomusimizda mustahkamlangani alohida e’tiborga molik. Konstitutsiyaviy qonun bilan davlat endilikda nafaqat umumiy o‘rta ta’lim, balki boshlang‘ich professional ta’lim olish bepul bo‘lishini kafolatlaydi. Eng muhim yangiliklardan biri alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim va tarbiyaning ta’minlanishi bo‘ldi. Tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma’lumot olishga haqli ekanligi aniq belgilanmoqda.

2017-yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlar soni faqat qisqartirildi. So‘nggi 5 yil ichida aksincha grantlarni ko‘paytirish yo‘lidan borildi. Mazkur Konstitutsiyadagi qoidaning belgilanishi bu boradagi ijobiy yo‘nalish doimo saqlab qolinishi davlat oliy ta’lim muassasalarida grant o‘rinlari yo‘qolmasligini ta’minlashga xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq, oliy ta’lim tashkilotlariga o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqi berilmoqda. Oliy ta’lim tizimi bilan bog‘liq masalalarning Konstitutsiya darajasida belgilanayotgani, oliy ta’lim jarayoniga tashqi aralashuvlarni cheklash, oliy ta’lim sifatini dunyoda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatidan va xalqning boy madaniy va ma’naviy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Demak, yangilangan Konstitutsiyaning yoshlar huquq va manfaatlariga daxldor normalarini har tomonlama tahlil qilgan holda Bosh qomusimizni “Yoshlar Konstitutsiyasi” deya e’tirof etishga ham barcha asoslarimiz bor.

Normaxamat GULYAMOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra boshlig‘i o‘rinbosari



MA’NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISH YO‘LIDA

Bugun zamonaviy harbiy xizmatchi deganda ko‘z o‘ngimizda ham jismonan, ham ma’nan barkamol yurt himoyachilari gavdalanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan Vatan posbonlarining jangovar shayligini oshirish bilan bir qatorda, ularning ma’naviy salohiyatini doimiy yuksaltirib borish zarurligi muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.







Shu bois keyingi yillarda Qurolli Kuchlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, qo‘shinlarda sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni mustahkamlab, harbiy xizmatchilarning bilimi, ma’naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ular qalbida Vatan taqdiri hamda uning kelajagi uchun daxldorlik, mas’uliyat, sadoqat va vatanparvarlik hissini oshirish masalasi ustuvorlik kasb etmoqda.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari ishtirokida o‘tkazilgan 3 kunlik o‘quv-uslubiy yig‘in davomida ham ayni shu jihatlarga alohida e’tibor qaratilib, mutaxassislar tomonidan tarbiyaviy ishlar hamda kadrlar ta’minoti bo‘yicha mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari kabi bir qator dolzarb mavzularda dars soatlari tashkil etildi. Yig‘in avvalida joriy yilda erishilgan natijalar sarhisob qilingach, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar tizimini yanada takomillashtirish, ularni butunlay yangi bosqichga olib chiqish, huquqbuzarliklarning oldini olish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan mas’ullarning fikr-mulohazalari tinglandi.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilarning jangovar kayfiyati, shaxsiy tarkibning o‘zaro jipsligi, uyushqoqligi va birdamligi eng avvalo harbiy jamoadagi ma’naviy muhitga bog‘liq ekani, bu muhitni esa albatta jangovar saflardagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari shakllantirishlari zarurligi ta’kidlandi. Shu bilan birga, yurt himoyachilarining oilasidagi ma’naviy muhitni yanada yaxshilash, farzand tarbiyasida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlar, kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ijobiy natija berayotgan samarali usul va uslublar hayotiy misollar orqali tushuntirib o‘tildi.

– Ahamiyatlisi, yig‘in davomida kelgusida amalga oshirishimiz zarur bo‘lgan asosiy vazifalarga aniqlik kiritib olish va ushbu yo‘nalishda yuqori natijalarga erishayotgan harbiy qismlarning ilg‘or tajribalarini o‘z faoliyatimizga tatbiq etish borasida o‘zaro tajriba almashish imkoniga ega bo‘ldik. Shaxsiy tarkib o‘rtasida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni yanada takomillashtirish hamda davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni o‘rnatish borasida bildirilgan fikrlar ham ayni muddao bo‘ldi, – deydi podpolkovnik Husan Abdulhayev.

Darhaqiqat, ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanib borayotgan bir paytda, soha vakillari ishtirokida o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish va ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo‘shinlari

Ko‘rik-tanlov

Kitob – fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Uning inson ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirishda ham bemisl hissasi bor. Zotan, ulug‘larimiz shunday ta’kidlaydilar: kishining madaniyati va ma’naviyati u o‘qigan kitoblar orqali shakllanadi. Shu sababli Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarda kitobga mehr uyg‘otish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, shu bilan birga ularning ma’naviyatini yanada yuksaltirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

ENG ilg‘orlar YUZAGA CHIQDI





Xususan, Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida harbiy qism komandirining ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha maslahatchisi – madaniyat markazi boshliqlari o‘rtasida o‘tkazib kelinayotgan “Eng ilg‘or madaniyat markazi boshlig‘i” hamda harbiy qism kutubxonachilari o‘rtasidagi “Eng yaxshi kutubxonachi” ko‘rik-tanlovlari ham shu maqsadda amalga oshirilayotgan xayrli tadbirlar sirasidan.

Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va madaniyat departamenti binosida bo‘lib o‘tgan ko‘rik-tanlovlarning yakuniy bosqichi bu gal ham qizg‘in davom etdi. Bellashuvlarning shaffof o‘tishini ta’minlash maqsadida Prezident administratsiyasi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va boshqa nufuzli idoralardan kelgan mas’ul vakillar hakamlar hay’ati tarkibiga jalb etildi.

“Eng ilg‘or madaniyat markazi boshlig‘i” ko‘rik-tanlovi davomida ishtirokchilar tomonidan o‘z yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar hisoboti, madaniyat markazida tashkil etilgan badiiy-havaskorlik jamoalari va to‘garaklarning qay darajada tizimli yo‘lga qo‘yilganligi, bu boradagi hisobot hujjatlarining yuritilishi, o‘tkazilgan tadbirlar va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tayyorlagan fotoalbomlar va videoroliklar ko‘rib chiqildi. Ishtirokchilarning o‘z yo‘nalishidagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalar ijrosi bo‘yicha qilgan hisobot-ma’ruzalari ularning qay darajada tajribali ekanini ochiqlagan bo‘lsa, harbiy qism va muassasalarda o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy va madaniy hordiq chiqarish tadbirlarining rejasi va ssenariysini tuzish sharti kasbiy mahoratlarini amalda namoyon qildi. Shuningdek, ular sohaga oid test sinovlaridan ham o‘tishdi.

“Eng yaxshi kutubxona” ko‘rik-tanlovi ham qiziqarli bo‘ldi. Unda kutubxonalarning bugungi kun talablariga javob berishi, moddiy-texnik bazasi, fondi, yangi adabiyotlar bilan boyitilgani, elektron-axborot almashinuvi va imkoniyatlari, badiiy-estetik jihozlangani, shuningdek harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari hamda ularning oila a’zolarini kutubxonaga jalb etish ko‘rsatkichlari, kutubxonada o‘tkazilayotgan tadbirlar xilma-xilligi, mazmun-mohiyati va samaradorligi kabi muhim jihatlar baholandi. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur tanlov shartlari ishtirokchilarning ish faoliyati, kasbiy tayyorgarlik darajasi va nazariy bilimlarini sinovdan o‘tkazdi.

Murosasiz kechgan ko‘rik-tanlovning yakuni bo‘yicha o‘rinlar quyidagicha taqsimlandi:

“Eng yaxshi kutubxonachi” yo‘nalishida 1-o‘rinni kichik serjant Abbosxon Safaraliyev *(Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi)* egalladi. 2-o‘rin Muhayyo Fayzullayevaga *(Markaziy harbiy okrug)*, 3-o‘rin esa Nodira Madrimovaga *(Shimoli-g‘arbiy harbiy okrug)* nasib etdi.

“Eng ilg‘or madaniyat markazi boshlig‘i” yo‘nalishida Gulniso Saydaliyeva *(Toshkent harbiy okrugi)* 1-o‘rin sohibi bo‘ldi. 2-o‘rinni Hayotxon Maxramova *(Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy havo kuchlari qo‘mondonligi)*, 3-o‘rinni kichik serjant G‘olibjon Azimjonov *(Toifalangan obyektlarni qo‘riqlash qo‘shinlari qo‘mondonligi)* qo‘lga kiritdi.

G‘olib va sovrindorlar diplom, esdalik va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Podpolkovnik Gulnora XODJAMURATOVA



Mardlar unutilmaydi

QAHRAMON yigit yodi

Harbiy qism. Xotira lavhida katta leytenant Shermuhammad Ashirovning qisqa, ammo asrlarga tatigulik hayot yo‘li haqida shunday so‘z boradi.



Shermuhammad Ashirov 1975-yil 23-yanvar kuni Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida tug‘ilgan. Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining birinchi bitiruvchisi.

U 2000-yili avgust oyida Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida Vatanimiz sarhadlariga suqilib kirgan terrorchi jangari to‘dalarga qarshi kurashda dushman joylashgan bazalarni qidirib topish va ularga havodan turib, zarba berish orqali yakson qilish bo‘yicha jangovar vazifalarda faol ishtirok etdi. Mamlakat mustaqilligi va el tinchligini muqaddas burch deb bilgan Shermuhammad zimmasiga yuklangan topshiriqlarni sharaf bilan bajarishga kirishdi. Mi-8 vertolyoti ekipaji tog‘li hududda jangarilar guruhini aniqlab, unga katta talafot yetkazdi. Afsuski, jang paytida vertolyotning o‘ng dvigateliga tekkan o‘q uchish apparatiga jiddiy shikast yetkazdi. Boshqaruvi qiyinlashgan vertolyotni yerga qo‘ndirish vaqtida o‘zbek lochini – Shermuhammad Ashirov qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Marhum katta leytenant Shermuhammad Ashirov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, xizmat burchini bajarish chog‘ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko‘rsatgani uchun II darajali “Shon-sharaf” ordeni bilan mukofotlangan.

Yangiyo‘l tumanida joylashgan Xalqobod qo‘rg‘onidagi mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi katta leytenant Shermuhammad Ashirov nomi bilan doim g‘ururlanib yuradi. Marhum qahramon xotirasini abadiylashtirish, uning Vatan oldidagi sharafli xizmatini yosh avlod ongiga chuqurroq singdirish maqsadida mahallaning gavjum binosida uning hayot yo‘li aks etgan kompozitsiya lavhalari o‘rnatildi.





Mudofaa vazirligi mas’ullari, harbiy qism ofitserlari, marhum qahramonning oila a’zolari, safdoshlari va do‘stlari jam bo‘lgan ushbu dargohda so‘z olgan mehmonlar amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar katta leytenant Shermuhammad Ashirov xotirasini abadiylashtirish, yoshlar o‘rtasida qahramon siymosini keng yoyish va harbiy xizmatning sharafli yo‘lini anglatish borasida muhim qadam bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidladi.

Mehmonlar harbiy qism hududida katta leytenant Shermuhammad Ashirov nomiga ochilgan bog‘ga tashrif buyurdi. Mudofaa vazirining tegishli topshirig‘i bilan amalga oshirilayotgan ushbu tashabbus zamirida mard o‘g‘lonlarimizning fidoyiligi va yorqin jasoratini xalqimiz orasiga keng targ‘ib qilish, ularga munosib ehtirom ko‘rsatish kabi ezgu maqsadlar yotadi.

Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Olimjon O‘sarov qahramon yigitning jasorati haqida so‘zlar ekan, mahalladagi xotira burchagi va harbiy qismda barpo etilgan bog‘ Yangiyo‘l yoshlari uchun g‘urur va iftixor ramzi bo‘lib qolishini aytib o‘tdi. So‘ngra bog‘ atrofiga faxriy mehmonlar va yoshlar tomonidan “Yashil makon” doirasida turli daraxt ko‘chatlari o‘tqazilib, bu an’anani yanada kengroq targ‘ib qilish va mardlar jasoratiga bag‘ishlangan uchrashuvlar doimiy ravishda o‘tkazilishiga kelishib olindi.

Kapitan B. ELMURODOV

Xotira – aziz, jasorat mangu

Qutlug‘ nomi BARHAYOT



Vaqt tezkor. Qutlug‘jon maktabni tamomlab, Baxmal tumani mudofaa ishlari bo‘limiga qarashli mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti qoshidagi o‘quv kursiga qatnay boshladi. Mashg‘ulotlar davomida o‘z qiziqishi va izlanuvchanligi hamda namunali xulqi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘ldi. Chegara qo‘shinlarida muddatli harbiy xizmatni o‘tagach, yurak amriga bo‘ysundi – ishini milliy armiyamiz safida kontrakt bo‘yicha davom ettirdi.

...2008-yilning kuzi. Qutlug‘jon o‘ziga bildirilgan ishonchni sidqidildan ado etish asnosida noqonuniy yo‘llar bilan yurtimiz chegaralarini buzib kirishga uringan jinoyatchilarga qarshilik ko‘rsatdi. Qonunbuzarlar qo‘lga olinadi. Afsuski, ularni zararsizlantirish chog‘ida Qutlug‘jon qahramonlarcha halok bo‘ldi.

Mard va jasur posbon Qutlug‘jon Rahmonov vafotidan keyin 2009-yil 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. Uning nomini abadiylashtirish maqsadida o‘zi tug‘ilib, voyaga yetgan mahallasi Qutlug‘obod deb nomlangani yaqinlarini yanada mamnun etdi.

Tog‘ bag‘ridagi mo‘jazgina uydan Qutlug‘jonning sinfdosh o‘rtoqlari va qadrdonlarining qadami uzilmaydi. Ular Shoira ayani yolg‘izlatmay, yumushlariga yordamlashadi. Qo‘ni-qo‘shnilar-u maktab o‘quvchilari ham bu xonadonga tez-tez kelib turishadi. Qutlug‘jonning jasorati haqida eshitgan bolalar u singari mard va jasur askar bo‘lishni istaydi. Uzoq yillar yosh avlodga ta’lim-tarbiya berib, el-yurt farovonligi yo‘lida mehnat qilgan ota-onasi Abdumannop aka va Shoira opa doim e’zozda.

– Farzandimiz Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash har bir yigitning muqaddas burchi ekanini juda erta anglab yetgandi, – deydi onasi Shoira Rahmonova. – U darsdan bo‘sh vaqtlari harbiylar, ayniqsa chegara posbonlari haqidagi kitoblarni o‘qir, shu mavzulardagi filmlar jon-u dili edi. O‘g‘lim yaxshi ko‘rgan kasbini tanladi, qasamyodiga sodiq qolib, tinchlik uchun jon berdi... Men bir mard harbiyning onasi ekanimdan g‘ururlanaman!

Baxmal tumanidagi 3-umumta’lim maktabi hovlisiga Qutlug‘jon Rahmonov byusti o‘rnatildi. Uning xotirasi va chegarachilar hayotiga bag‘ishlangan xotira burchagida sarhadlarimiz posbonlarining mashaqqatli va sharafli xizmatiga oid ko‘plab fotosuratlar, ashyolar mavjud. Yigirma olti yil umr ko‘rgan jasur posbonning onasiga yo‘llagan samimiy maktublar ham shu yerda saqlanadi.

Mazkur maktabning “Vatan tayanchi” otryadi a’zolari uchun Qutlug‘jon Rahmonovning sharafli hayoti o‘rnak bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular jasur akalarini doimo yodda tutib, muntazam ravishda tadbirlar o‘tkazib kelmoqda. Yaqinda o‘tkazilgan “Vatanparvarlik – milliy yuksalish kafolati” mavzusidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirda ham Qutlug‘jonning nomi bot-bot yodga olindi. Tadbirda otryad a’zolaridan Zavra Zubaydullayeva, Javohir O‘rolov, Shalola O‘sarova kabilar mazmunli chiqishlar qildi, Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar ijro etdilar.

Mamadiyor TEMIROV,
Baxmal tumanidagi
3-umumta’lim maktabi
o‘qituvchisi

9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni

Korrupsiyani tag-tomiri bilan tugatish va unga qarshi kurashish uchun keng jamoatchilik ongiga korrupsiyaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar rivojiga, mamlakatning barqarorligi va iqtisodiy o‘sishiga g‘ov ekanligi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, komil inson kabi milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishga salbiy ta’sir etuvchi illat, tahdid ekanini singdirish lozim.



KORRUPSIYA — XAVFLI ILLAT

Korrupsiyaga oid savodxonlikni hamda yuksak ma’naviyatni shakllantirish, inson ongini o‘zgartirish orqali korrupsiyani minimal darajaga tushirish mumkin. Bugungi kunda yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashash, el-yurtga sadoqat, adolat, halollik kabi insoniy fazilatlarni faoliyatimizning bosh mezoniga aylantirish orqali korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlash mumkin. Bu ishda inson irodasi muhim o‘rin tutadi.

Inson hayoti davomida ba’zan o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan g‘oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatlardan chiqishning iloji yo‘qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og‘ir vaziyatlarga duch kelganda, “Kim o‘zining yo‘lini yo‘qotmasligi mumkin?” deganda birinchi navbatda, o‘z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma’naviy olami baquvvat bo‘lgan insongina bunday vaziyatdan yorug‘ yuz bilan chiqa oladi. Ma’naviy boylik odamga katta kuch va madad beradi.

Farzandlarimizni bolaligidan pokni nopokdan, halolni haromdan farqlashga o‘rgatish zarur.

Inson ma’naviyatini yuksaltirishda oilaning, ta’lim muassasalarining va mahallaning ahamiyati beqiyos. Chunki inson ma’naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi. Iroda bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o‘ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqmaydi. Shuning uchun yuksak irodali inson, avvalo, o‘z nafsini jilovlay oladi, tamagirlikdan yiroq bo‘ladi, Vatani, xalqi oldidagi burchini bajarishga vijdonan yondashadi.

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish insondan nafaqat huquqiy ong va madaniyat, shuningdek siyosiy irodani ham yuksaltirishni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan yana shu narsa ma’lum bo‘lmoqdaki, jamiyat, davlat va shaxsning iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash va muvozanatga keltirish, qashshoqlikka qarshi kurashish, iqtisodiy xavfsizlikni, shu jumladan davlat xavfsizligini ta’minlashda korrupsiyaga qarshi kurash choralari samaradorligini oshirish muhim rol o‘ynaydi.

Shu bois Prezidentimiz O‘zbekiston xalqining farovonligi, xavfsizligini ta’minlash yo‘lidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida korrupsiyaga qarshi qat’iyat bilan kurash olib borish kerakligini, buyuk kelajagimizni qurishning asosiy sharti ekanini nazarda tutib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash prinsipini qaror toptirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etish kerakligini, mazkur yo‘nalishdagi e’tiborga molik ishlar qatorida korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilganini alohida ta’kidlaydi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi davlat apparati va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu xavfli illat bilan kurashdagi kuch va imkoniyatlarini birlashtirish imkonini yaratdi.

Bugun yurtimizda yanada jadallashgan keng ko‘lamdagi islohotlarda, davlat va biznesning o‘zaro hamkorligida ochiqlikni, shaffoflikni mustahkamlash korrupsiyani tag-tomiri bilan yo‘qotishni, fuqarolarda qonunga hurmat va itoatkorlik hissini yuksaltirishni taqozo etadi.

S. ELMURODOV,
Mudofaa vazirligi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi yetakchi mutaxassisi

YANGRA, MADHIYAM!

Har kun erta tong yangra, madhiyam,
Baxtdan urib bong, yangra, madhiyam.
Yashnar yurtimiz, hur O‘zbekiston,
Dunyoda tengsiz, chaman, gul – bo‘ston.

Barcha elatlar bunda do‘st-o‘rtoq,
Baxtli, shod yashar, ahil va inoq.
Yurtimiz obod, go‘zal, betakror,
Navqiron avlod topmoqda kamol.

Sen yangraganda jo‘sh urar yurak,
Marralar sari chorlaydi yuksak.
Vatan iqboli aks etar senda,
El istiqboli aks etar senda.

Har kun erta tong, yangra, madhiyam!
Baxtdan urib bong, yangra, madhiyam!

Eshniyoz BURHONOV
Qashqadaryo viloyati

NAVOLARDA YANGRAGAN VATAN

Jonbaxsh navolar ko‘p go‘zal, betakror,
Qalbingga bag‘ishlar sehr-u halovat.
Shundayin ulug‘vor aziz qo‘shiq bor,
Qaddingni tik tutib, eshitmog‘ing shart.

Vatan qiyofasi mavjlanar unda,
Unda ona xalqim baxti mujassam.
Dunyolarga bo‘ylar u tengsiz mujda,
Muborak qo‘shiq u, ulug‘, muazzam.

Madhiyam, jarang soch ochunlar ichra,
Zafarlar elimni etsin nurafshon.
Madhiyam, jarang soch, muhabbat ila
Xalqimga shijoat ayla armug‘on.

Madhiyam, sen shunday qo‘shiqsan qutlug‘,
Mo‘tabar tarona – g‘urur va sha’nsan.
Sen ila jahonga solamiz dovruq,
Navolarga ko‘chgan ulug‘ Vatansan.

Zulfiya YUNUSOVA

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

Yurtimizda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarining kafolatlarini mustahkamlash, ularning jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

SOG‘LOM FIKR hayotni o‘zgartiradi



Joriy yilning 20-fevralida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilinib, O‘zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilgani tarixiy voqea bo‘lgani va undagi majburiyatlarni bajarish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi. Tumanlardagi davolash o‘rinlarining 5 foizi nogironligi bo‘lganlarni reabilitatsiya qilishga ajratilishi, tuman markaziy shifoxonalarida tibbiy reabilitatsiya xonalari tashkil etilishi belgilandi. Protez vositalari 18 turdan 30 turga, ajratilayotgan mablag‘ esa 1,5 barobar oshirilib, 100 milliard so‘mga yetkazilishi hamda ular bilan ta’minlash elektron shaklda bo‘lishi qayd etildi.

Shuningdek, bino va inshootlarni qurish loyihasi nogironligi bo‘lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo‘yicha ham majburiy ekspertizadan o‘tkazilishi, xorijiy mutaxassislar ishtirokida joriy yilda kamida 500 nafar loyihachi va arxitektorni nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun to‘siqsiz muhit yaratishga o‘qitish vazifasi qo‘yilgan. Poytaxtdagi bekatlarni, jamoat transporti, jumladan metroni nogironligi bor odamlarga moslashtirish bo‘yicha ikki yillik dastur amalga oshirilishi belgilandi. Bu ishlarni hududlarda ham boshlash bo‘yicha viloyat hokimlariga topshiriq berilgan. Qolaversa, respublikamizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar yaratilgan.

Bugun yon-atrofimizda ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib, fiziologik holatiga qaramay, shijoat va jasorat bilan hayotda qator muvaffaqiyatlarga erishgan, erishayotgan hamda boshqalarga o‘rnak bo‘layotgan qahramonlar bisyor.

Andijonlik Zarina Madrahimova Respublika “Qizlar ovozi” klubining “Matonatli qizlar” loyihasida ishtirok etib, ibratli hayot yo‘lini tasvirlar ekan, ziyoli oilada tug‘ilgani, onasi o‘qituvchi bo‘lgani sababli ilmiy muhitda o‘sgani, ota-onasining unga nisbatan cheksiz ishonchi bo‘lgani uni jamiyatda o‘z o‘rnini topgan shaxs va xalqaro yutuqlar sohibasi bo‘lishiga turtki bo‘lganini ta’kidlaydi.

– Imkoniyatim boshqa tengdoshlarimga qaraganda cheklangan bo‘lishiga qaramay, ota-onam mening yetuk inson bo‘lishimga katta umid bog‘lagan. 2018-yili Andijon davlat universitetiga qabul qilinganimdan so‘ng ota-onamning ko‘zidagi yosh va ulardagi g‘ururni hamda bir necha yoshga yasharganini ko‘rib, menda boshqacha his-tuyg‘u kechdi. Shundan keyin ularni yanada xursand qilishim uchun bundan-da ulkan yutuqlarga erishishni oldimga katta maqsad qilib qo‘ydim. Shu kundan boshlab yurtimizda ilm-fan hamda sport sohasida yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga bor kuchim va g‘ayratim bilan harakat qildim. Sportning parataekvondo turi bo‘yicha ikki karra O‘zbekiston chempioni hamda milliy terma jamoasi a’zosi bo‘ldim. Ilm-fanda esa Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, viloyat hokimi stipendiyasi, ingliz tilidan chet tilni bilish bo‘yicha xalqaro “C1” darajadagi sertifikatni qo‘lga kiritdim.

Hozirgi kunda Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi 62-umumta’lim maktabida ingliz tili fani o‘qituvchisi sifatida faoliyat yuritayotgan qahramonimiz jismoniy holatidan qat’i nazar intilish, muntazam harakat orqali juda ko‘p yutuqlarga erishish mumkinligini isbotladi.

O‘z imkoniyatlariga qaramay, Jizzax viloyati G‘allaorol tumanining Jiydali mahallasida qishloq bolalari uchun o‘z uyida shinamgina kutubxona ochgan Nargiza Qo‘shmonovaning tashabbusi ham olqishga loyiq.

Nargiza bilan suhbat mobaynida u “Nega faqat men kitob o‘qishim kerak?! Nimaga bolalar va boshqa insonlar bundan bebahra bo‘lishlari kerak?! Qishloq odamlariga qarayman, hamma o‘z ishi bilan band. Maktab yoshidagi bolalari bilan deyarli ishlari yo‘q. Ya’ni ularning moddiy tomonlama ehtiyojlari qondirilsa bo‘ldi, deb o‘ylashadi. Prezidentimizning “Hech qaysi yoshni e’tibordan chetda qoldirmayman”, degan so‘zlarni eshitib, menda shijoat paydo bo‘ldi. Shundan keyin Yoshlar ittifoqining tuman kengashi kutubxona fondini kengaytirishga yordam berishdi”, deb minnatdorligini yashirib o‘tirmadi. Bunday iste’dodli yoshlar soni kam emas. Ammo ayrim qiyinchilikni deb ruhiyatini tushirib, orzularidan voz kechish va darrov noshukrlik qilish yaramaydi. Nogironligi bo‘lishidan qat’i nazar, shaxs qanchalik sog‘lom fikrlar ekan, shunchalik kamol topib boraveradi. Zero amerikalik yozuvchi Norman Vinsent Pil ta’kidlaganidek, “Noumid bo‘lmang, odatda kalitlar shodasidan oxirgi kalit qulfga to‘g‘ri kelib qoladi”.

Lazzat O‘TKIROVA,
TDShU xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan yurt posbonlarining nogironligi bor oila a’zolari uchun tadbir tashkil etildi.

G‘AMXO‘RLIK FIDOSI





Harbiy xizmatchilarning oilalariga g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatish maqsadida o‘tkazilgan tadbirda Farg‘ona garnizonidagi 12 nafar harbiy xizmatchining uyiga tashrif buyurilib, bolajonlarning yuziga quvonch ulashuvchi sovg‘alar taqdim etildi. Sharqiy harbiy okrug xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a’zolari bilan ishlash bo‘yicha yetakchi mutaxassisi Dilorom Mamatova hamda harbiy qismlar harbiy xizmatchilarning xonadonlarga tashrifi nafaqat sovg‘alar, balki samimiy suhbat, ma’naviy ko‘mak va chin dildan bildirilgan ezgu tilaklar bilan yanada mazmunli bo‘ldi.

Mazkur tashabbus nafaqat harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini qo‘llab-quvvatlash, balki jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan hurmat va e’tiborni kuchaytirish, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Bu kabi tadbirlar insoniylik va birdamlikni yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati

O‘zbek o‘g‘loni – mustaqillik posboni

“POSBONINGMIZ MARDLIKKA QODIR”

Yurtga egalikning ming bir sharti bor,
Avvalo, Vatanni asramoq darkor.
Shunda aytadurmiz yurakda viqor:
Senga o‘g‘lon bo‘lmoq sharaf biz uchun!

Joriy yilning ilk bahor pallasida muddatli harbiy xizmatni boshlagan o‘g‘lonlarimiz uchun g‘alvir suvdan ko‘tariladigan onlar yetib kelmoqda. Ya’ni ular yaqin bir yil davomida armiya maktabi saboqlarini qay darajada o‘zlashtirdi, nimalarga erishdi? Har bir askar harbiy qism qo‘mondonligi tavsiyanomasiga, ya’ni oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun imtiyozga erisha oladimi? Bu ularning bilim va iqtidoriga bog‘liq, albatta.
Ushbu maqolamizda muddatli harbiy xizmat davomida yutuqlarga erishgan, a’lochi posbonlarning orzulari, to‘g‘rirog‘i, kelajagini harbiy soha bilan bog‘lashni istagan o‘g‘lonlar haqida so‘z yuritamiz.

O‘Q OTISH MASHG‘ULOTI A’LOCHISI



– Muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan oddiy askarlar bugun o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuksak, dadil posbonlarga aylangan, – deydi vzvod komandiri mayor Bahodir Xoliyorov. – Ularning aksari sport bilan shug‘ullangan, jismonan chiniqqan yigitlar. Ular orasida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar a’lochilari ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha davom ettirishni maqsad qilgan askarlar talaygina. Bu o‘g‘lonlarimizdagi vatanparvarlik ruhining yuqori ekani, yurt himoyachisi bo‘lishdek sharafli kasbga bo‘lgan hurmat va qiziqishidan dalolat. Mana shunday olovqalb askarlarimizdan bo‘lgan Timur Abdusamadovga alohida to‘xtalishni istardim. U dala-o‘quv mashg‘ulotida eng yuqori ko‘rsatkichni qo‘lga kiritgan shovvozlardan. Merganlikda mohir yigitimizning niyati – kelajagini harbiy soha bilan bog‘lash. Mashg‘ulotlarda yetakchi, jamoatchilik ishlarida faol bunday o‘g‘lonlarimizdan bilimdon va ishonchli Vatan himoyachilari chiqishiga ishonaman.

Vzvod komandirining fikrida jon bor. Askarlar bilan suhbat jarayonida yetakchi posbonlar teran fikri, dadilligi bilan darhol ko‘zga tashlanadi. Toshkent viloyatining Bekobod tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan Timur Abdusamadov suhbat chog‘ida faolligi bilan e’tiborimizni tortdi. Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi akademik litseyni tugatgan yigit 7 yoshidan sportning karate, 14 yoshidan esa qo‘ljangi bilan shug‘ullangan. 2022-yili o‘tkazilgan Osiyo chempionatida “Usmanov kombat sistems” yo‘nalishida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritgan. Safdoshlari orasida jangovar tayyorgarlik a’lochisi sifatida hurmat va e’tibor qozongan Timur Abdusamadovning istiqboldagi orzusi harbiy sohada qad rostlash. Bu borada uning fikri bilan qiziqamiz:

– Oilada uch o‘g‘il voyaga yetganmiz. Ota-onam bizni doimo el-yurtga foydasi tegadigan insonlar bo‘lishimizni orzu qilgan. Muddatli harbiy xizmatga munosib topilganimda ular juda mamnun bo‘lgandi. Askarlik burchimni kontrakt bo‘yicha davom ettirishni maqsad qilganimni esa xursandchilik ila qabul qilishdi. Albatta, bu sohani tanlagan inson har tomonlama bilimli va irodali bo‘lishi kerak deb o‘ylayman. Muddatli harbiy xizmatning ilk sinovli onlarida irodam toblandi, ko‘nikmalar jarayonida harbiy sohaga bo‘lgan ishtiyoqim va komandirlarimga hurmatim oshdi. Ayniqsa, harbiy hayotga moslashuv jarayonida yaqindan yordam bergan III darajali serjant Ma’mur Dadaboyevdan minnatdorman. Maqsadim – komandirlarim kabi harbiy sohada faoliyat yuritish, hayotimni Vatanni himoya qilishdek sharafli xizmatga bag‘ishlash.

MAQSADI – OFITSER BO‘LISH

Kichik serjant Bahromjon USMONOV



To‘rt farzandni ulg‘aytirgan zahmatkash ota-ona katta o‘g‘illari Dilshodbekka ulug‘ orzular bog‘ladi.

Qoraqalpog‘istonning Beruniy tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Dilshodbek Quatbayev armiya maktabi sinovlarida toblandi, tajribali komandirlardan saboq oldi, oldiga yuksak maqsad qo‘ydi. Bu niyatidan yaqinlarining boshi osmonda.

Albatta, o‘g‘il-qizning erishgan har bir yutug‘ida ota-onaning munosib o‘rni bor. Negaki, ular farzandlarini sog‘lom ulg‘aytirib, bilimli, kasb-korli bo‘lishiga zamin yaratadi. Dilshodbek ham maktabda yaxshi o‘qish bilan birga, sportning muay-tay yo‘nalishida sport ustalaridan saboq olgan. Bir qator musobaqalarda yetakchilar safida bo‘lgan. 2022-yili yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan respublika chempionatida bronza medalni qo‘lga kiritgan. Dilshodbekning qiziqishlaridan yana biri kitob mutolaasidir.

– Kitob doimiy hamrohim bo‘lgan, – deydi oddiy askar Dilshodbek Quatbayev. – Harbiy xizmatda dam olish soatlarida sport bilan shug‘ullanish va kitob o‘qishga harakat qildim. Yaqinda jahon adabiyotidan Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” romanini o‘qib tugatdim. Unda urushdan keyingi voqealar, do‘stlik va sevgi aks etgan. Roman menga juda yoqdi. Askarlik burchimga to‘xtaladigan bo‘lsam, vazifam o‘qchi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni puxta o‘zlashtirishga, komandirlarim ishonchini oqlashga harakat qilaman. Xizmat davomida orzularim maqsadga aylandi. Kelajakda oliy ta’lim dargohida tahsil olish uchun bor imkoniyatimni ishga solaman. Ofitserlar safida Vatan himoyachisi bo‘lish men uchun oliy sharaf.

– Onasi, o‘g‘ling bilan gaplashganingdan buyon kayfiyating ko‘tarinki, – xotiniga zimdan razm soldi Ilyos aka. – Askar bolangni rosa sog‘ingan ekansan-da, a?

– Sog‘inganim rost, ammo xursandligim sababi boshqa, – jilmayib javob qaytardi Ozoda opa. – Birinchidan, bolam askarlik burchini yaxshi uddalayapti, komandirlari unga yaxshi baho berdi. Keyin o‘g‘limiz katta orzular ostonasida turibdi.

– Ha, Dilshodbek armiyada haqiqiy yigit bo‘lib ulg‘aydi. Hoynahoy, senga harbiy sohada xizmat qilish niyatini aytgan bo‘lsa kerak, shundaymi?

– Xuddi shunday! Niyati tavsiyanoma olib, oliy harbiy bilim yurtiga o‘qishga kirish. Xudo xohlasa, ofitser bo‘ladi, o‘g‘lim!

– Aytganing kelsin, xotin.

“KOMANDIRLARIM ISHONCHINI, ALBATTA, OQLAYMAN!”



Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Qurbon Tastanbekov Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida voyaga yetgan. Bolalik chog‘laridanoq “Men, albatta, askar bo‘laman!” deb orzu qilgan yigit bugun armiya maktabining a’lochi posbonlaridan biri. Xobbisi sportning dzyudo yo‘nalishi bilan shug‘ullanish bo‘lgan sahifamiz qahramoni 8 yoshidan sport to‘garagiga qatnashgan, tuman va viloyat musobaqalarida yuqori o‘rinlarga munosib topilgan. O‘n sakkiz yoshida respublika miqyosidagi sport chempionatida 2-o‘rin g‘olibligiga musharraf bo‘lgan. Xizmatga qadar jismonan baquvvat bo‘lishga astoydil intilgan Qurbon bugun qaddi tik, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuksak askarlardan.

– Askarlik burchini o‘tash ko‘p yigitlarning orzusi, ammo barchaga ham askarlik libosini kiyish nasib etmaydi, – deydi oddiy askar Tastanbekov. – Menga shu sharafli burch nasib etganidan faxrlanaman. Aslida har bir yigit armiya maktabi sinovlarida toblanishi kerak. Shundagina Vatan himoyachisi bo‘lish qay darajada zalvarli va faxrli ekanini his qiladi. To‘g‘ri, harbiy xizmatning ilk ko‘nikmalariga moslashish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni talab darajasida o‘zlashtirish iroda, bilim va iqtidor talab etadi. Mana shunday onlarda safdosh do‘stlarim oddiy askarlar Sardor Zaripov va Timur Uspanov bilan sinovlarni yengib o‘tdik. Bugun xizmatda o‘rin topgan, o‘z maqsad va orzulariga ega posbonlar qatoridamiz. Maqsadimiz – kelajakda el-yurtimiz rivojiga munosib ulush qo‘shadigan insonlar safida bo‘lish. Men muddatli harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha davom ettirib, Vatan himoyachisi bo‘lishga bel bog‘laganman. Buning uchun bir qator o‘ziga xos talablar bor. O‘ylaymanki, bu sinovlarni yengib o‘tib, kelajakda yurt himoyachisi bo‘laman. O‘z o‘rnida talabchan va qattiqqo‘l, e’tiborli va g‘amxo‘r bo‘lgan komandirlarim ishonchini, albatta oqlayman.

E’tibor qilgan bo‘lsangiz, maqolamizdan joy olgan posbonlarning barchasi sport bilan shug‘ullangan, jismonan chiniqqan o‘g‘lonlar. Vatan himoyachisi bo‘lishga bel bog‘lagan, yuragida o‘ti bor bunday yigitlar yurt tinchligining munosib qo‘rg‘oni bo‘lishiga ishonamiz. Orzulari ulug‘ bu o‘g‘lonlarga nurli istiqbol tilab qolamiz.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Sharafli maqsad

> Axborot-kutubxona markazidan chiqib, piyodalar yo‘lakchasi tomon yurdim. Yo‘l boshida 3 nafar o‘smir qiz o‘zaro tortishar edi. Men qiziqib, go‘yo telefonda gaplashayotgandek ular yonida to‘xtadim.

O‘TYURAKLAR XIZMATINGGA SHAY



– Gulnora, qizlar bu sohani eplolmaydi, xomxayollaringni yig‘ishtir, – dedi sochini chiroyli qilib turmaklab olgan qiz.

– To‘g‘ri aytasan, dugonajon, men ham fikringga qo‘shilaman, – deya qizni ma’qulladi yana boshqasi.

– Muqaddas, Barno, nega tushunmaysizlar, axir hech qayerda qiz bola harbiy bo‘lolmaydi, deb yozilmagan-ku! Tarixda qanchalab ayollar harbiy yurishda qatnashgan, boshqalari o‘tkir aqllari bilan sarkardalarni rag‘batlantirgan, – Gulnora degan qiz kuyinib, so‘zlay ketdi. – Bibixonim, Barchinoy, To‘marislar haqida o‘qib, ularga havas qilganmiz-ku hammamiz.

– E, qo‘ysang-chi, hozir zamon boshqa. Ana, o‘qituvchi bo‘l – ming dollar maosh olasan, shifokor bo‘l – qo‘shimcha mablag‘ing naqd, tadbirkor bo‘l – dunyo seniki bo‘ladi, – dedi Muqaddas Gulnoraga go‘yo nasihat qilganday.

– Ha, buni yozgan inshongdan ham sezganmiz-u, lekin harbiylik ayollarga xos emas-da, – qarshilik qilishda davom etdi Muqaddas.

– Mayli, ustoz ham ma’qulladi-ku, Gulnoraning inshosi eng yaxshisi deb topildi. Dugonajon, orzungga yet! – yon berdi Barno.

– Hayriyat-ey, bor ekansan-u! – deya Gulnora Barnoni quchdi va ko‘zi menga tushib, salom berdi. Yonimga kelib, “Ustoz, siz gazetada ishlaysiz-a?” deb so‘radi.

– Ha, gazetachiman. Qizim, uzr, bahs-munozaralaringizni eshitdim. Chindan ham harbiylikni tanladingizmi? – dedim.

– Ustoz, ahdimdan qaytmayman! Vatan himoyasi men uchun otamday, onamday aziz! – Gulnora shunday deya menga umid bilan qaradi.

– Qizim, inshongizni bera olasizmi menga, bir o‘qib chiqar edim, – dedim.

– Jon deb beraman, ustoz, – u darrov sumkasidan daftar olib menga uzatdi.

Daftarni olib, ishxonaga keldim, xonamga kirib, uni varaqlab, o‘qishga tushdim. Gulnoraning har satrida Vatanga muhabbati, mehr-sadoqati sezilib turardi. Insho o‘smirlarga xos beg‘ubor tilda yozilgan, pokiza qalbi hissiyotlarga to‘la edi.

“Tomorqamizda o‘sgan har bir tup nihol mening Vatanim, ota-onam, ukalarim, ustoz-u dugonalarim Vatan men uchun. Ularning baxti, shodligi, orzu-umidlari – Vatan sadosi, kuy-qo‘shiqlari – Vatanim sasi, yuragim Vatan deya uradi. Ana shunday baxt-u quvonchlarga to‘la mening Vatanim! Uni sevmoq, asrab-ardoqlamoq, himoyasiga hamisha shay turmoq men uchun ham qarz, ham farzdir”.

Bo‘lajak harbiy qizning qalb tug‘yonlari meni hayajonga soldi. Bir yurakda Vatan ishqi shunchalar bo‘lar!

“Bilaman, orzumga onajonim qarshilik qiladi, lekin dadajonim men tomonda. “Aslida sen ham ukalaring qatori o‘g‘il bo‘lib tug‘ilsang bo‘lar ekan, shunda niyatingga osongina erishar eding. Lekin men seni qo‘llab-quvvatlayman, harbiy qizim!” deya padarim goh-goh hazil qilib qo‘yadi. Bilaman, dadam bu qat’iy orzu emas, o‘tib ketadi deb o‘ylaydi. Yo‘q, men qaror qildimmi, bu yo‘ldan qaytmayman, orzumga yetaman, eplayman, uddalayman va albatta, harbiy bo‘la olaman!” deb yakunlaydi inshosini Gulnora.

Ona Vatanim bag‘rida Gulnoradek orzusi osmon qadar qizlar ko‘p. Ha, Gulnora yolg‘iz emas, u va u kabilar kelajak uchun, mustahkam va mukammal Vatan uchun himoyaga tayyor. Demak, O‘zbekistonning ertasi chindan-da, ishonchli qo‘llarda. Men Gulnoraning, albatta, harbiy bo‘lishiga ishondim. Ne baxtki, o‘tyurak yigitlar qatorida lobar, zebo qizlaring ham hamisha xizmatingga shaydir, Vatanim!

O‘ktamxon AKBAROVA

Sana



HARBIY QISM 75 YOSHDA







> Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, uning sarhadlari daxlsizligini ta’minlashga qodir zamonaviy, harakatchan, har tomonlama yaxshi qurollangan armiyani tashkil etish bo‘yicha ulkan ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda, albatta, harbiy qismlarning o‘z o‘rni bor.

Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida joylashgan harbiy qismlarning birida harbiy qism tashkil etilganining 75 yilligi tantanali tarzda nishonlanishi zamirida ulkan tarix va ehtirom mujassam.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng tinchlik davriga o‘tish vaqtida sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlari jangovar shayligini oshirish hamda qo‘shinlar safini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilar ekan, harbiy qismning ilk tamal toshi o‘sha pallalarda qo‘yildi. Va nihoyat, sobiq Ittifoq mudofaa vazirining tegishli buyrug‘i bilan 1951-yil 1-dekabr harbiy qism tashkil etilgan kun sifatida tasdiqlandi. Ushbu sana munosabati bilan shaxsiy tarkib jangovar musiqa sadolari ostida saf tortar ekan, bayroqlarning mag‘rur hilpirashi, qalblardagi chuqur hurmat va ehtirom barchaning yuz-ko‘zlarida aks etib turdi.

Harbiy qism komandiri va bayram mehmonlari yig‘ilganlarni ushbu sana bilan qutlab, buyuk ajdodlarimiz, Vatan uchun jon fido qilgan ota-bobolarimiz, quroldosh birodarlarimizning qahramonlik an’analari ushbu harbiy qismda xizmat qilayotgan mard o‘g‘lonlar yutuqlarida namoyon bo‘layotganini g‘urur bilan tilga olishdi.

Harbiy orkestr va keksa faxriylar ishtirokida davom etgan tadbirlar barchaning xotirasida harbiy qismning buguni va o‘tmishi borasidagi ko‘plab mulohazalarni yodga soldi.

Tantanali chiqishlar davomida shaxsiy tarkibning eng namunali va faol, jonkuyar va fidoyi harbiy xizmatchilarining mehnatlari e’tirof etilib, ularga tashakkurnoma va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

O‘z muxbirimiz

Ekskursiya

YOSHLAR QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASIDA





Yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga e’tibor – bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun yurtimizda yosh avlodni ilm-ma’rifatli qilish, kelajakda yetuk kadrlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.







Prezidentimiz tomonidan yoshlar bilan manzilli ishlashning yangicha uslublari ishlab chiqilgani fikrimizga yaqqol misol bo‘ladi. Bunday islohot zamirida esa har bir yoshni jamoat ishlarida faol bo‘lishga undash, fan va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni turli sport o‘yinlariga jalb qilish kabi ulug‘vor maqsadlar yotibdi.

Jumladan, bugungi kunda Qurolli Kuchlar akademiyasida yoshlarni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega avlod qilib tarbiyalash, yoshlar bilan tizimli ishlash mexanizmini joriy qilish, shuningdek ular qalbida Vatanga muhabbat hamda sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, yoshlar ongiga milliy g‘urur va iftixor tushunchalarni singdirish, xalq va armiya o‘rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, shu orqali ular o‘rtasida harbiy soha nufuzini oshirish, harbiy kasbga havas uyg‘otish maqsadida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar o‘tkazilmoqda.

Haftaning har juma kuni akademiyada ochiq eshiklar kuni etib belgilangani ana shunday ezgulikka xizmat qiladi. Ushbu kunda poytaxtimizning umumta’lim va ixtisoslashtirilgan ta’lim maktablari, kollejlar, litseylar o‘quvchilari va oliy o‘quv yurti talabalari akademiyaga tashrif buyurib, kursantlarga yaratilgan sharoitlar, o‘quv jarayoni va harbiy texnikalar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu safargi ochiq eshiklar kuni ham yoshlar uchun taassurotlarga boy bo‘ldi. Unda Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 208-umumta’lim maktabi o‘quvchilari, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari hamda mahalla yoshlari ishtirok etdi.

Dastlab yoshlar akademiyada kursantlar uchun yaratilgan shart-sharoit va qulayliklarga bevosita guvoh bo‘lishdi. O‘quv auditoriyalarida kursantlarning dars jarayonini kuzatishdi. Akademiyaning axborot-resurs markazi faoliyati bilan yaqindan tanishish asnosida mazkur ma’rifat maskanida bo‘sh vaqtidan unumli foydalanayotgan kursantlar bilan samimiy muloqot qilishdi va o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Ekskursiya oliy ta’lim muassasasining ko‘p yillik tarixini o‘zida jamlagan muzey zallari bo‘ylab davom etdi. Ekspozitsiya zallaridan o‘rin olgan, o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar va dala-taktik o‘quvlari aks etgan lavhalar, shuningdek qurol-yarog‘lar va harbiy texnika maketlari o‘quvchi-yoshlarda qiziqish uyg‘otdi.

Shu kuni yoshlar uchun jangovar texnikalar, o‘qotar qurollar ko‘rgazmasi ham namoyish etildi. Bir so‘z bilan aytganda, ekskursiya hamma uchun sermazmun va esda qolarli bo‘ldi.

Polkovnik
S. ABDUAZIMOV
Qurolli Kuchlar akademiyasi

Ijtimoiy himoya







CHUQURLASHTIRILGAN TIBBIY KO‘RIK

Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, shuningdek tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash uchun shart-sharoitni yaratish hamda bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan ma’muriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida aholi o‘rtasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklar, soha mutaxassislari ishtirokida uchrashuvlar va davra suhbatlari o‘tkazib kelinmoqda.



Xususan, Mudofaa vazirligi tomonidan harbiy xizmatchilar va oila a’zolarining salomatligini mustahkamlash, turli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu munosabat bilan Mudofaa va Sog‘liqni saqlash vazirliklari hamkorligida Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida joylashgan harbiy qismlarda xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari hamda Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklar tashkil etildi.

Tibbiy ko‘rik asosan onkologik kasalliklarning oldini olishga qaratildi. Jarayonda pediatr, onkomammolog, travmatolog, terapevt, onkoginekolog, dermatolog, stomatolog, oftalmolog, nevrolog, endokrinolog kabi shifokorlar ko‘rigi tashkil qilindi. UTT va EKG tekshiruvlari o‘tkazildi. Salomatlik tadbiri doirasida, shuningdek harbiy xizmatchilar oila a’zolarining reproduktiv salomatligini mustahkamlash va tibbiy madaniyatini oshirish, xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish to‘g‘risida profilaktik suhbat o‘tkazildi.

– Tibbiy ko‘rik davomida xastalik aniqlangan fuqarolarga mataxassis shifokorlar tomonidan kerakli tavsiyalar hamda bir nechta bemorlarga statsionar sharoitda davolanish bo‘yicha yo‘llanmalar berildi, – deydi shifokor Shahnoza Muhammadiyeva. – O‘tkazilgan tibbiy ko‘rikda fuqarolar tomonidan qilingan murojaatlar bo‘yicha shifokorlarimiz tibbiy maslahatlar berishdi. Ikki nafar murojaatchiga esa respublika tibbiyot birlashmalarida bepul davolanishlari uchun Sog‘liqni saqlash vazirligidan order olindi.

Ta’kidlash joizki, o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yurt himoyachilarining oilalarida sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq qilish, mavjud kasalliklarni barvaqt aniqlash va tez davolash, xastalikni surunkali holatga o‘tib ketishining oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Shahnoza SULTONOVA
TOQQQ matbuot xizmati

Innovatsion metod

> Innovatsion metodlar ta’lim jarayonida yangicha yondashuvlar va usullarni o‘z ichiga olib, kursantlarning faolligini oshirish, o‘qitishning samaradorligini ta’minlash va zamonaviy bilimlarni olishga qaratilgan. Innovatsion metodlar kursantlarga, eng avvalo, mashg‘ulotlarda faol ishtirokchi bo‘lish imkonini beradi.



TA’LIMDA avtogogik yondashuv

Masalan, “Flipped classroom” yoki “Cooperative learning” metodlari mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi. Bunda kursantlar yangi bilimlarni mustaqil egallashga, to‘g‘ri va yangi qarorlar qabul qilishga o‘rganadi. Bu ularning tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish kabi ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Innovatsion metodlar odatda, kursantning shaxsiy rivojlanishi, yangicha ko‘nikmalarni olishi va bilimlarini rivojlantirish maqsadida ularning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlariga moslashgan bo‘lishi lozim. Bunda shaxsga yo‘naltirilgan va individual ta’lim rejalari orqali har bir kursantning imkoniyatlari maksimal darajada ishga solinadi. Murakkab va amaliyotda qo‘llaniladigan bilimlarni aniqlash, tahlil qilish va sintez qilish imkonini beradigan usullar orqali kursantlar yangicha yondashuvlar va yechimlarni topish, malaka va ko‘nikmalarni birlashtirish tajribasiga ega bo‘ladilar. Innovatsion metodlarni qo‘llashda kursantlarga avtogogik yondashish maqsadga muvofiqdir.

Avtogogika ta’limda kursantlarning mustaqil o‘rganish va jarayonni samarali tashkil qilishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv kursant yoki o‘rganuvchining faol ishtirokini ta’minlash, uning barkamol shaxs sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kabilarni qamrab oladi.

Avtogogik yondashuvning asosiy maqsadi kursantning ijodiy faoliyatini oshirish va uni faol, mustaqil o‘rganishga undashdir. Bu yondashuv orqali kursantlar:

- fanni o‘zlashtirishda faol ishtirok etadi;
- yangi bilimlarni aniqlash va tadqiq qilishda yordam beruvchi usullardan foydalanadi;
- muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashuv bilan yechim topishga o‘rganadi.

Bu esa, albatta, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga kursantlarning ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va natijada malakali va bilimli ofitserlarni tayyorlash imkonini beradi.

Podpolkovnik N. TOLIBOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
kafedra boshlig‘i, dotsent

Vatanparvarlik targ‘iboti

> Termiz garnizonida joylashgan madaniyat markazida “Yoshlar – milliy armiyamiz nigohida” shiori ostida rahbar va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.





Rahbar va yoshlar uchrashuvi

Unda polkovnik Po‘lat Sativaldiyev yoshlar bilan samimiy muloqot qilib, armiyaning yoshlar hayotida tutgan o‘rni, harbiy kasb nufuzi, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek mamlakatimizdagi mavjud oliy harbiy ta’lim muassasalari va ularga o‘qishga kirish tartibi xususida batafsil ma’lumot berdi.

Tadbirda, shuningdek yoshlarning muammolarini o‘rganish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga yo‘naltirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Muhimi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular qalbida jasorat, mardlik va shijoat kabi fazilatlarni shakllantirish, harbiylikdek sharafli va mas’uliyatli kasbga qiziqish uyg‘otish maqsadida tashkil etilgan uchrashuv ishtirokchilar qalbida yangi orzu va maqsadlarning kurtak yozishiga zamin yaratdi. Kelajakda o‘z hayotini harbiy soha bilan bog‘lamoqchi bo‘lgan o‘g‘il-qizlarning soni ortdi.

Harbiy xizmatchilarning qo‘ljangi va faxriy qorovulning saf chiqishlari, harbiy orkestr jamoasining ona Vatanni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar guldastasi tadbir ishtirokchilariga chinakam bayramona kayfiyat ulashdi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni



Konferensiya

Kasbga tayyorlash yo‘lida



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotida davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida fuqarolarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, shuningdek tashkilot tizimida fuqarolarni texnik kasblarga o‘qitish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilash maqsadida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyada muhim mavzu sifatida “Vatanparvar” tashkilotida fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish tizimi va uning rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi. Unda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, IIV Jamoat xavfsizligi departamenti yo‘l harakati xavfsizligi xizmati, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda Yoshlar ishlari agentligining mas’ul xodimlari ishtirok etdi.

Konferensiya davomida ishtirokchilar o‘zlari faoliyat yuritayotgan idoralarda fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan dasturlar haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etdi. Shu bilan birga, “Vatanparvar” tashkiloti bilan olib borilayotgan hamkorlikni kuchaytirish, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini yanada oshirish uchun o‘z takliflarini bildirdi.

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasining “SBH WEST” tashkiloti mas’ul xodimlari, onlayn videoaloqa orqali anjumanga qatnashib, O‘zbekistondan “Vatanparvar” tashkiloti o‘quv muassasalarida tayyorlangan fuqarolarni Germaniyaga vaqtincha ishlash uchun yuborish tizimi samaradorligi to‘g‘risida fikr almashdilar. Germaniyaga yuborilayotgan mutaxassislarning tayyorlanish jarayoni va bu tizimning muvaffaqiyatli ishlashi haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Konferensiya yakunida tashkilot va vazirlik hamda idoralar o‘rtasida fuqarolarni ommaviy texnik kasblarga o‘qitishga doir hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish, shu bilan birga, ushbu yo‘nalishdagi ishlar samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar belgilab olindi. Ushbu chora-tadbirlar davlat va jamoat sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga, fuqarolarni yuqori malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

Ro‘ziqul OCHILOV,
“Vatanparvar”

So‘ragan edingiz



HUQUQIY maslahat

Savol: I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun kunlik ish vaqti qancha bo‘lishi kerak?

Javob: I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o‘ttiz olti soatdan oshmasligi kerak.

I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar uchun kunlik ishning *(smenaning)* davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi, lekin olti kunlik ish haftasida – olti soatdan, besh kunlik ish haftasida – yetti soat-u o‘ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati

Festival

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda milliy armiyamizga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, bu boradagi ijobiy fikrlarini yanada kengaytirish, shuningdek yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va barkamol inson sifatida kamol toptirish maqsadida Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarda harbiy-vatanparvarlik festivali o‘tkazilmoqda.





HARBIYLARGA HAVAS UYG‘ONDI

Shunday tabirlardan biri Navoiy garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari tomonidan Karmana tumanidagi 25-ixtisoslashtirilgan maktab-internatida “Yoshlar – milliy armiyamiz nigohida” shiori ostida tashkil etildi. Harbiy prokuratura, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan mazkur tadbirda so‘zga chiqqanlar yoshlarga milliy armiyamizning kuch-qudrati, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek harbiy kasb nufuzi xususida gapirdi.

Vatanimizda tinchlik va osoyishtalikka qalqon bo‘layotgan harbiy kasb egalarining fidoyi xizmatlarini e’tirof etishdi, keyingi yillarda mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida harbiylik kasbiga qiziqish tobora ortib borayotgani hamda yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar to‘g‘risida, muborak istiqlol, yurtimizning fayzli kunlari, buyuk kelajagi haqida to‘lqinlanib gapirdi.

Festival davomida harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar yoshlar qalbiga faxr-iftixor va jo‘shqin kayfiyat ulashdi. Shuningdek, faxriy qorovulning ko‘rgazmali chiqishlari ular qalbidagi harbiy kasbga havas tuyg‘ularini yanada alangalatdi.

Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati bosh mutaxassisi



REKLAMA REKLAMA REKLAMA

Ayollar bekati

Xona havosini tozalash

Havoning zararlanishi haqida gap ketganda, xayolimizga shahar ko‘chalaridagi tutun va changlar keladi. Ammo AQShning Atrof-muhitni himoya qilish agentligi ma’lumotiga ko‘ra, xonadon ichidagi havo ko‘chadagidan 2-5 karra iflos bo‘ladi. Bugun sizlarga uyda va ishda erkin hamda xavfsiz nafas olishga yordam beradigan tavsiyalar haqida ma’lumot beramiz.



Havo harorati o‘zgargan sari infeksiya ham ko‘payadi. Uning oldini olish uchun xona havosini tez-tez shamollatib turish lozim. Yopiq binoda ishlovchilar, ishlarini boshlashdan avval eshik va derazalarni ochib, xona havosini yangilashni yoddan chiqarmang. Xona havosining almashtirilmasligi ish unumdorligining pasayishiga, yuqumli kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Yana shamollatilmagan xonaga xushbo‘y iforli vositalarni sepa ko‘rmang, eski hidlar bilan qorishib, yoqimsizlik yuzaga keladi. Xonadagi havo inson kayfiyatiga ham ta’sir qiladi. Hatto atrofdagilarda yomon taassurot uyg‘otadi. Buning oldini olish uchun sizga bir nechta usulni tavsiya qilamiz.

Tabiiy xushbo‘ylantirish vositalaridan foydalanish

Havo spreyi yoqimli hidga ega, ammo ular tarkibidagi uchuvchi organik birikmalar allergik reaksiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Agar shunga o‘xshash vositalardan foydalanish kerak bo‘lsa, unda buni yaxshi shamollatish tizimiga ega xonada amalga oshirish kerak. Shu bilan bir qatorda tabiiy tarkibga ega mahsulotlarni tanlash tavsiya etiladi. Masalan, efir moylari va xushbo‘y shamlar. Bundan tashqari, dolchin, vanilin, qalampirmunchoq yoki lavandali paketlardan foydalanish mumkin. Agar gullarning hidi yoqsa, xonada guldastalarni qoldirishga harakat qilish lozim.



Ushbu moddalar o‘pka kasalliklarini, shuningdek yurak muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Taom tayyorlash vaqtida zararli moddalar chiqishini minimallashtirish uchun maxsus qurilmadan foydalanishga harakat qiling! Tutun bilan birga aldegidlar havoga chiqariladi, bu saraton rivojlanishi xavfini oshiradi.

Maxsus qurilmalardan foydalanish

Juda nam havo mog‘or paydo bo‘lishiga, ko‘z va teriga ziyon yetkazishi, burun oqishi va o‘pka muammolarining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun namlash jarayoniga to‘g‘ri yondashish va professional qurilmalardan foydalanish kerak. Qurilmani tanlashda xonaning maydoni va maqsadiga e’tibor berish lozim. Shuningdek, havo tozalash qurilmasi imkon qadar ovozsiz ishlashi va atrofdagilarga xalaqit bermasligi kerak.

Muntazam nam tozalashni amalga oshirish

Doimiy ravishda nam tozalashni amalga oshirish tavsiya etiladi. Namlik havodagi mayda zarralarni o‘ziga tortib oladi. Bu nafas olishimizga ko‘maklashadi. Tozalash nafaqat kir va chang, balki mikroorganizmlardan – bakteriya, virus va chang qoldiqlaridan xalos bo‘lishga yordam beradi. Shuningdek, ftalatlar, formaldegidlar, ammiak, xlor va ionogen kabi faol moddalarsiz ekologik toza mahsulotlarni tanlashga harakat qilish kerak. Ulardan foydalanganda ventilyatsiya qilishni ham unutmang!

Ovqat pishirayotganda maxsus qurilmadan foydalanish

Ovqat pishirish paytida havoning ifloslanish darajasi ruxsat etilgan ko‘rsatkichlardan oshadi. Oshxonada taom pishirish tufayli atrofga uglerod oksidi, azot dioksidi va formaldegid chiqariladi.



Karamning foydasi



Karam organizmdagi deyarli barcha tizimlar salomatligi va faoliyati uchun ahamiyatli bo‘lgan tabiiy antioksidant C vitaminining konidir. Organizmdan toksinlarni chiqaradi, hujayralarni shikastlanishdan saqlaydi va immunitetni mustahkamlaydi. Uning tarkibida deyarli barcha vitaminlar mavjud, hatto oshqozon uchun muhim bo‘lgan U vitamini, fitonsidlar, fermentlar hamda mineral moddalar mujassam.

Ushbu mahsulot organizmdan toksinlarni chiqaradi, hujayralarni shikastlanishdan saqlaydi va immunitetni mustahkamlaydi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, C vitamini organizmda terining tarangligi, sog‘lomligi va tiniqligini ta’minlaydigan kollagen ishlab chiqarilishini tezlashtiradi. Antioksidantlik xususiyatiga ega ekani hisobiga C vitamini organizmda yallig‘lanish jarayonining kelib chiqishi va ajinlar paydo bo‘lishining oldini oladi.

Karam ko‘rish qobiliyatining susayishi va katarakta xavfini kamaytirish xususiyatiga ega bo‘lgan karotinoidlar – lyutein va zeaksantinning manbai sanaladi. Kechasi ko‘rish qobiliyatining yomonlashishi A vitamini tanqisligi bilan bo‘g‘liq bo‘ladi. Karamda esa organizmda A vitaminiga aylanadigan betakarotin bisyor bo‘ladi. Tarkibidagi kaliy, kalsiy va magniy kognitiv qobiliyatni yaxshilaydi, yurak mushaklarini mustahkamlab, qon bosimini me’yorlashtiradi. Kempferol esa yallig‘lanishni bartaraf qilib, allergik reaksiyalarning oldini oladi.

Parhez mahsuloti hisoblangan karamning 100 grammida 30 kkal bo‘lgani sabab shifokorlar vazn tashlamoqchi bo‘lganlarga ushbu mahsulotni ratsionga kiritishni tavsiya qiladi. Bir qancha foydali xususiyatlariga qaramay, karamning xomi qorinni dam qilishi mumkin. Termik ishlov berilganda esa shishishga hissa qo‘shadigan hujayralar parchalanadi.

Pazanda

KARAMLI PIROG



Kerakli masalliqlar: 1 stakan sut, bir choy qoshiq droja, 1.5 osh qoshiq shakar, 100 g margarin, 1 dona pomidor va tuxum, 400 g un, karam, selder, 1 bog‘ yangi piyoz, 4 dona pishgan tuxum.

Tayyorlanishi: birinchi galda, apara uchun iliq sutga droja va shakarni solib, yaxshilab aralashtirib, 5 daqiqaga olib qo‘yamiz. Oshib chiqqandan so‘ng eritilgan margarin, tuz, tuxum va unni solib, yumshoq xamir qorib olamiz. So‘ng yarim soatga tindiramiz. Ungacha nachinkasi uchun mayda qilib, karam va 1 bog‘ selder, yangi piyozni to‘g‘rab, qovuramiz. Olovdan olguncha, pomidor bilan pishgan tuxumni mayda to‘g‘rab, qo‘shib yengil qovurib olamiz. Oshib chiqqan xamirni ikki bo‘lakka bo‘lamiz. Birinchi bo‘lakni yoyib, ichiga nachinkalarni solamiz. Keyin olib qo‘yilgan xamirni yoyib, kesib, ustiga zigzak usulida qo‘yamiz. Tuxum surib, sedana sepib, 180-200 daraja haroratda 35-40 daqiqa davomida pishirib olamiz. Yumshoq va o‘zgacha ta’mli karamli pirogimiz tayyor.

Yoqimli ishtaha!

Sahifani Sayyora MIRZAYEVA tayyorladi.

Bu qiziq!

Dunyo madhiyalari

hamda madhiyalar dunyosi

Har bir davlatning o‘z madhiyasi bor, lekin biz ularning aksariyati haqida ko‘p narsa bilmaymiz. Ayni paytda agar siz qiziqsangiz, juda ko‘p narsalarni topasiz. Masalan, Argentina madhiyasi kuyi qamoqxonada bastalangan ekan. Siz buni bilarmidingiz? Biz siz uchun eng qiziqarli madhiyalarni to‘pladik.



Eng qadimiy madhiya

Eng qadimgi matnli madhiyani yaponlar kuylashgan. O‘rta asr she’riy janriga mansub ushbu madhiya X–XI asrga oid to‘plamlarda anonim tarzda uchraydi. Qadimgi matnga musiqa yaratish g‘oyasi irlandiyalik harbiy orkestr dirijyori Jon Uilyam Fentonning xayoliga keladi. U 1870-yili kompozitsiya yozadi va uni Yaponiya imperatori oldida ijro etadi. Ammo yaponlar uning madhiyasini tantanali chiqmagan deb hisoblashadi va o‘zlarining madhiyasini yaratishni afzal ko‘rishadi. Biroq Fenton versiyasi haligacha Yokohama shahridagi ibodatxonalardan birida ijro etib kelinadi.

Yaponiyaning yangi madhiyasi “Imperator hukmronligi” saroy musiqachisi Xiromori Xayashi tomonidan yozilgan va 1880-yilda imperator tomonidan tasdiqlangan. Unda faqat bir misra bor, u odatda, ikki marta kuylanadi: “Sening shohliging ming yoki sakkiz ming avlod bo‘lsin, toki mox vayronalardan o‘sib chiqqan qoyalarni bezab tursin”. Shu tariqa yaponlar imperatorni ulug‘laydi va Yaponiya davlatiga uzoq umr tilaydi.

Eng uzun madhiya

Urugvay eng uzun milliy madhiyaga ega bo‘lib, to‘liq versiyasi besh daqiqa. Biroq ko‘p holatlarda uning ikki kupleti kuylanadi. Qizig‘i shundaki, Urugvay va Paragvay uchun yozilgan madhiya matni urugvaylik Fransisko Akunya de Figeroa tomonidan yozilgan. Musiqasi esa italyan bastakori Donizettining “Lukretsiya Borjia” operasi muqaddimasidan olingan.

Ikki davlat uchun bitta madhiya

Gretsiya va Kiprda bir xil “Ozodlik madhiyasi” yangraydi. Dionisios Solomosning 1823-yilda yozilgan she’riy poemasidagi 158 to‘rtlikdan 24 tasi madhiyaga kiritilgan, ammo ko‘pincha faqat ikkitasi ijro etiladi.

Butun qit’a madhiyasi

1897-yilda Yoxannesburgdagi maktab o‘qituvchisi Enoch Sontonga o‘z shogirdlarining iltimosiga binoan, “Xudo Afrikani saqlasin!” qo‘shig‘ini yaratadi. Qo‘shiq 1912-yilda qayta ishlanadi hamda Janubiy Afrika xalqlari Milliy kongressining ochilishida xosa tilida yangraydi. Shundan so‘ng ushbu qo‘shiq butun Afrika qit’asi bo‘ylab keng tarqaldi va Janubiy Afrika, Tanzaniya va Zambiya madhiyalariga asos bo‘ldi.

Qamoqxonada yozilgan madhiya

Argentina madhiyasi Ispaniya mustamlakasidan mustaqillikka erishgandan ko‘p o‘tmay, dunyoga keladi. 1812-yili argentinalik Vinsent Lopes inqilob haqidagi spektaklning so‘nggi qo‘shig‘idan ilhomlangan holda matnini yozadi. Umumiy qonunchilik assambleyasi she’rni ma’qullaydi va Lopesni ilhomlantirgan spektakl qo‘shiq muallifi ispaniyalik Blas Pareraga musiqa yozishni topshiradi. Biroq bastakor Ispaniya va ispanlarga nisbatan haqoratlarni o‘z ichiga olgan she’rlar uchun ohang yozishni qat’iyan rad etdi. Ammo u qamoqda o‘lim jazosi tahdidi ostida edi. Natijada teatr uchun avval bastalagan musiqiy parchalarini bir kechada jamlashga majbur bo‘ladi. Shu tariqa Argentina madhiyasining kuyi qamoqxonada bastalanadi. Ozodlikka chiqqan ispan bastakori Argentinani butunlay tark etadi.

O‘z joniga qasd qilgan madhiya muallifi

Buyuk Britaniyaning “Qirolni asragil, Xudo” nomli madhiyasining kuyi va so‘zi musiqa o‘qituvchisi Genri Keri tomonidan yaratilgan. U kambag‘allikda hayot kechiradi va olti farzand ko‘radi. Eng qizig‘i, o‘z joniga qasd qilganidan bir yil o‘tib, davlat madhiyasi muallifiga aylanadi. Madhiyaning yana bir o‘zgacha tomoni shunda ediki, matn qirol yoki qirolicha hokimiyatga kelishiga qarab o‘zgarardi. Chunki madhiyaning “ayol” va “erkak” versiyasi mavjud edi.

Noto‘g‘ri tushunilgan madhiya

Hindiston madhiyasi 54 soniyada ijro etiladi va boy tarixga ega. 1911-yili Hindistonda Buyuk Britaniya qiroli Georg V tashrifi kutilayotgan edi. Hindiston milliy kongressi mashhur shoir Rabindranat Tagordan oliy martabali mehmonga maqtov qasidasi yozishni so‘raydi.

Ko‘p o‘tmay, u “Xalq ruhi” ma’nosini anglatuvchi “Janaganamana” deb nomlangan qasidasini yozdi. Rasmiylarga topshirar ekan, Tagor: “Men uni Xudoga bag‘ishladim, lekin uni kongressga bering, ularga yoqadi”, dedi. Qo‘shiq tashrif buyurgan qirol oldida ijro etilganda, gazetalar Tagor qasidani Georg V uchun maxsus yozgan deb yoza boshladilar. Muallifning o‘zi tez orada bu mish-mishlarni rad etib, madhiya Hindiston taqdir xudosi Bhagya-Vidati haqida kuylanganini aytadi. Biroq Britaniya qiroli tashrifidan ko‘p o‘tmay, u adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlangani haqida xabar oladi. Osiyolik shoirlarning hech biri ilgari bunday sharafga sazovor bo‘lmagan edi. Shuningdek, Tagor Bangladesh madhiyasi uchun yozilgan she’r va musiqa muallifi ham sanaladi.

Ikki madhiyali davlat

Tailandda ikkita madhiya mavjud: qirollik va fuqarolik. Afsonalardan biriga ko‘ra, rus bastakori Pyotr Shchurovskiy qirollik oilasining madhiyasini tahrirlashda ishtirok etgan. Ko‘pgina manbalar uni musiqa muallifi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, bastakor qiroldan minnatdorlik belgisi sifatida enfir qutisini olgani ham aytiladi. Biroq Shchurovskiyning mualliflig‌i to‘g‘risida ishonchli dalillar yo‘q, Tailand manbalari boshqa mualliflarni nomlaydi.

Madhiya odatda, har kuni 8:00 va 18:00 da efirga uzatiladi – bu vaqtda taylar qoida tariqasida televizor oldida turib, muzlashadi.

Boshqa ton ohangiga o‘tkazilgan madhiya

Singapurda madhiyani faqat malay tilida kuylash mumkin. Madhiyani xohlagan aranjirovkada yoki tarjimada kuylash jarimaga tortiladi. “Olg‘a, Singapur!” matni bilan boshlanuvchi madhiya Buyuk Britaniya mustamlakasidan mustaqillik uchun kurash paytida yozilgan bo‘lib, u re-majorda ijro etilgan. Ammo 2001-yilda u yanada ulug‘vor va ilhomlantiruvchi ijro uchun rasman fa-majorning pastki ohangiga o‘tkazildi.

Sherzod SHARIPOV
tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi_bot
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro‘ziqulov
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo‘ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5869
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 522 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
www.mv–vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya